

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy fanlar va geografiya

fakulteti dekani:

_____ dots. A.Nazarov

“ _____ ” 2013 yil

“Himoyaga ruxsat beraman”

kafedra mudiri

_____ **B.Baratov**

“ _____ ” 2013 yil

TABIIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKULTETI

**5440500-Geografiya kunduzgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat
bosqichi bitiruvchisi**

Fazliddinova Nilufarning

**Farg'ona vodiysida milliy xunarmandchilik asosida turizmni
rivojlantirishning geografik jihatlari**

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

g.f.n. O.Mirzamahmudov

Namangan – 2013

Mundarija

KIRISH

1-BOB. MILLIY XUNARMANDCHILIK VA TURIZMNING TABIIY, TARIXIY VA IJTIMOIIY ASOSLARI

- 1.1 Milliy xunarmandchilik va turizmni rivojlantirishining tarixiy geografik shart-sharoitlari va omillari
- 1.2 Milliy xunarmandchilik va uning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati
- 1.3 Farg'ona vodiysining milliy xunarmandchilik va turizmni rivojlantirishdagi o'rni

2-BOB. MILLIY XUNARMANDCHILIK VA TURIZMNING FARG'ONA VODIYSIDA IQTISODIY VA IJTIMOIIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

- 2.1 Milliy xunarmandchilik– turizmni rivojlantirishining muhim omili.
- 2.2 Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilikning ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni hal etishdagi o'rni
- 2.3 Farg'ona vodiysida milliy xunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning yo'nalishlari va istiqbollari

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda milliy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor kuchaydi. SHu jumladan, milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning geografik jihatlarini bilish va uni o'rganish, ayniqsa, turizm tarixi va xududiy tarkibini, uning iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalishi bilan bog'liq muammoli masalalarni tadqiq etish hozirgi zamon geografiya fanining eng muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A Karimovning "Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida "Ayniqsa, xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega" ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan¹.

Respublikamizda 2008 – yil mobaynida "...xizmat ko'rsatish va servis sohasida – qariyb 220 ming ta, kasanachilik bo'yicha esa 97 ming 800 ta yangi ish o'rinlari yaratildi"

Aholiga pulli xizmat ko'rsatish 2008 yilda yalpi ichki mahsulotning 12,1 foizini, jami xizmatlar ko'rsatishning 45,3 foizini tashkil etdi. Lekin, turizm xizmatlari Respublika yalpi ichki mahsulotlarining 0,2 – 0,3 foizini, jami ko'rsatilgan xizmatlarning 0,5–0,6 foizinigina tashkil etgan.

Ushbu sohada mavjud imkoniyatdan 20–25 marta past, huddi shunga o'xshash vaziyatni hunarmandchilik sohasida ham kuzatish mumkin. Mazkur sohada davlat imtiyozlariga qaramasdan rivojlanish nihoyatda past suratlarda amalga oshmoqda. Respublikada ba'zi bir hunarmandchilik yo'nalishlarining faoliyati keyingi 15–20 yil ichida ancha pasaygan, ayrimlari esa shu holatga tushish arafasida turibdi. CHunonchi, turizm va hunarmandchilik sohalariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish ham iqtisodiy,

¹ Каримов И. Жаҳон молиявий – иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартаараф этишининг йўллари ва чоралари : Т. Ўзбекистон 2009,48 – бет.

ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, aynan shu sohalar O'zbekistonni dunyoga tanitgan.

Farg'ona vodiysining ham tarixan rivojlangan betakror tabiati, sharoiti uning xududida xunarmandchilikning turli yo'nalishlarini rivojlanishiga sabab bo'lgan. Bu esa vodiya turizm va uning turlarini rivojlantirishga asos vazifasini o'taydi.

Davlat mustaqilligi vodiya milliy hunarmandchilik va turizmni, ayniqsa halqaro turizmni har tomonlama rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berdi. Jumladan, ushbu an'anaviy va milliy qadriyatlar bilan aloqador holda ko'plab shahar va shaharchalarning qayta tiklanishi va rivojlanishi uchun qator imkoniyatlar vujudga keldi.

SHu boisdan, yuqoridagi fikrlarni amalga oshirish va ayni paytda mazkur sohalarda keyingi o'zgarishlarni o'rganish maqsadida ushbu bitiruv malakaviy ish bajarildi. Yuqoridagi fikr-mulohazalar mazkur ish mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Turizm va hunarmandchilikning rivojlanishida ijtimoiy mehnat taqsimoti va u bilan aloqador uning hududiy shakllari hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mazkur muammoning ko'pgina jihatlari bilan xorijiy davlatlarda A.Gettner, A.Mariotti, V.Unitsiker va boshqalar, MDX davlatlarida N.N.Baranskiy, N.S.Mironenko, N.S. Fal'kovich, Yu.G.Lipets, A.G.Nizamiev kabi oltimlar tadqiqot olib borishgan. Turizmni bazi bir muammolari bilan respublikamizda Z.M.Akromov, E.A.Axmedov, O. Atamirzaev, A.A.Rafiqov, F.Komilova, T.Toshmurodov, A. Norchaev, A.Saidov, A.Soliev, A.Qayumov, M.R.Usmanov va boshqalar shug'urlanishgan. Biriq, Farg'ona vodiysida illiy hunarmandchilik va turizmni rivojlantrishning geografik jihatlari batafsil o'rganilmagan. Jumladan, milliy hunarmandchilik va turizm bo'yicha tadqiqotlar ko'lami qoniqarli emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning ijtimoiy geografik asoslarini aniqlash va istiqbolli rivojlantirishning asosiy xususiyatlarini aniqlash va baholash kabi muamolarni xal etish zarur.

Tadqiqot maqsadi. Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilik hamda turizmni hozirgi xolatini tahlil etish asosida ushbu sohalarni istiqbolda rivojlantirish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ishning vazifalari. Yuqorida keltirilgan tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishda quyidagi vazifalar o'z yechimini topdi:

- vodiya hunarmandchilik va turizmni shakllanishi va rivojlanishini ta'minlochi shart – sharoitlar hamda omillarini aniqlash;

- hunarmandchilik markazlarining turistlarni, shu jumladan halqaro turistlarni o'ziga jalb qilishi bo'yicha baho berish;

- Farg'ona vodiysini qadimiy hunarmandchilik va turizm maskani ekanligini aniqlash;

- milliy hunarmandchilikning ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni shu jumladan, ishsizlik muammosini hal qilishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish;

- hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish borasida mavjud geografik muammolarni aniqlash va ushbu sohalarning istiqbollari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti – milliy hunarmandchilik va turizm markazlari bo'lgan Farg'ona vodiysi shaharlari, shaharchalari tanlangan. Tadqiqot **predmetini** milliy hunarmandchilik va turizm rivojlanishi bilan shahar va shaharchalardagi ijtimoiy – geografik jarayonlar va munosabatlar, shu jumladan mehnat munosabatlari tashkil etadi.

Ishning nazariy va metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, ma'ruzalari, farmonlari va farmoyishlari,

Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, milliy hunarmandilik va turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy adabiyotlar ishning asosiy metodologik asosini tashkil etadi. SHu bilan birga bitiruv malakaviy ish tayyorlashda hunarmandchilik, turizm sohasidagi yirik olim va mutaxassislarning ilmiy asarlarida keltirilgan faktlarga ham asoslanildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni bajarish mobaynida tarixiy, qiyosiy – geografik, kartografik, statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va himoya uchun oldinga surilgan masalalar.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilar bilan asoslanadi:

- Farg'ona vodiysida hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish sharoiti va omillari tahlil etildi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida hunarmandchilik bilan turizm o'rtasidagi aloqadorlik baholandi;
- hunarmandchilik va turizm bilan aholi bandligi o'rtasidagi aloqadorlik o'rganildi;
- milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy – geografik muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqildi hamda ushbu sohalarning istiqbolli yo'nalishlari taqdim etildi.

Ishning amaliy ahamiyati. unda ishlab chiqilgan tavsiya va takliflarni "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va uning Farg'ona vodiysidagi boshqarma va bo'limlari tomonidan amaliy faoliyatlarida samarali foydalanishi mumkin. Tadqiqot natijalaridan o'quv jarayonida, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, turizm geografiyasi va boshqa shu kabi fanlardan o'quv mashg'ulotlarni olib borishda yordamchi material sifatida foydalanish mumkin.

Ishning hajmi va tuzilishi. bitiruv malakaviy ish umumiy hajmi 84 betdan iborat, shundan matn qismi 80 bet, shuningdek bitiruv malakaviy

ishda 1 ta rasm va 3 ta jadvallar o'rin olgan. bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, xulosa, 42 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'xatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

Birinchi bob “Milliy hunarmandchilik va turizmning tabiiy, tarixiy va ijtimoiy asoslari” deb nomalanadi. Unda milliy hunarmandchilikning shakllanishi va rivojlanishining tabiiy va iqtisodiy–geografik shart–sharoitlari va omillari, hunarmandchilik va unga xos tushuncha hamda atamalar hamda Farg’ona vodiysida milliy hunarmandchilikni rivojlanishining geografik jihatlari ochib berilgan.

Ikkinchi bob “Milliy hunarmandchilik va turizmning Farg’ona vodiysida iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi o’rni va ahamiyati ” deb nomlanadi. Unda milliy hunarmandchilik xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash maqsadga muvofiq ekanligi, shuningdek, Farg’ona vodiysi O’zbekistondagi yirik va tarixiy tajribalarni mujassam etgan sog’lomlashtirish turizmi markazi ekanligi, milliy hunarmandchilikning Farg’ona vodiysidagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishdagi o’rni, ahamiyati va istiqbollari yoritilgan.

Ishning **xulosa** qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, Farg’ona vodiysida milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning geografik jihatlari ochib berilgan. O’zbekistonda milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar keltirilgan.

1.1. O'zbekistonda milliy hunarmandchilik hamda turizm rivojlanishining tarixiy ijtimoiy-geografik shart-sharoitlari va omillari

Ma'lumki, milliy hunarmandchilik O'zbekistonda qadimdan rivojlangan va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ajdodlardan avlodlarga an'anaviy tarzida o'rgatib kelingan. Boburning "Boburnoma" asarida ham bu haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Biroq, o'tgan asrdagi siyosiy jarayonlar va mustabid tuzum davrida milliy hunarmandchilik butunlay izdan chiqdi. Faqatgina mustaqillik arafasida bu qadriyatlar qayta tiklana boshladi.

T.A. Faxrutdinova o'z asarlarida O'zbekistonning milliy amaliy san'ati namunalari, bu san'atning ajdodlardan avlodlarga o'tishi jarayonlari haqida san'atshunos olim sifatida mulohaza yuritgan. T. Abdullaev XIX–XX asrlarda O'zbekiston hunarmandchiligining rivojlanish bosqichlari va tendentsiyalarini ochib berishga harakat qilgan.

"Qayta qurish" erkinligi ta'sirida o'tgan asr 80-yillari o'rtalarida R.H.Karimov, F.X. Nabiev, F.B. Isoqov asarlarida avvalgi siyosiy sharoitlarda chetlab o'tilgan yoki buzib yoritilgan tarixning ba'zi sahifalarini yangicha yondoshib, xolisona tahlil etishga harakat qilingan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan ke-yin tadqiqotchilarning milliy hunarmandchilik va hunarmandlar tayyorlash masalasini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari yanada faollashdi. Jumladan, mustaqillik yillarida SH.G'oyibnazarov, I.Jabborov asarlari,² A.To'qsonov, I.Sulaymonov, A.Qurahmedov, M.Hamidovanning ilmiy maqolalari³ e'lon qilingan.

O'zbekistondagi hunarmandchilik tarixini bir qator xorijlik tadqiqotchilar ham o'rganishga harakat qilishgan. Nemis olimlari Judit Peltz va Klaus Panderlar

² Ф о й и б н а з а р о в Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари. 20-йиллар таҳлили. Тошкент, 1994; Ж а б б о р о в И. Антик маданият ва маданият хазинаси. Тошкент, 1999.

³ Т ў қ с о н о в А. Нега ўзбекдан ишчи кам? // Иқтисод ва ҳисобот. 1993. №4;
С у л е й м а н о в И. К. О кадровом потенциале ремесленников в Узбекистане 20-х годов // Общественные науки в Узбекистане, 1998. № 6; Қ у р а х м е д о в А. Самарқандлик ҳунармандлар // Фан ва турмуш, 2000. №5; Ҳ а м и д о в а М. Ўзбегимнинг- каштасию зардўзи // Фан ва турмуш, 2000. №5.

tomonidan yaratilgan asarlarda o'zbek xalqining turmush tarzi, an'anaviy xo'jalik turlari, shu jumladan milliy hunarmandchilik tarixi, uning sohalari to'g'risida qisqa ma'lumotlar uchraydi⁴.

Gabriele Keller tomonidan yaratilgan tadqiqot keng qamrovli va o'zbek an'analari fotosuratlarida aks ettirilib, shu jumladan, "Tikish va to'qish O'zbekistonda yuksak darajali hunarmandchilik namunalari hisoblanib, o'zbek ayollari tomonidan mahorat bilan amalga oshiriladi, ayniqsa, zardo'zlik liboslari tantanalarda kiyiladi va katta e'tiborga sazovor"⁵.

Nemis tadqiqotchilari B.Vollenveber, P.Frankelarning tadqiqotida muhim ma'lumotlar berilgan bo'lib, qadimiy glamdo'zlik markazlari Farg'ona, Nurota, Sirdaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonda keng rivojlanganligi e'tirof etilgan⁶.

Mustaqillik yillarida hunarmandchilikning rivojlanishi haqida frantsuz tadqiqotchilari tomonidan ham asarlar yaratilgan. Masalan, Gerald Degeorge va Pierri CHuvenlarning tadqiqotlarida o'zbek hunarmandchiligi sohalari, jumladan, naqqoshlik kashtachilik tarixiga oid bo'lgan ma'lumotlar berilgan⁷.

AQSHlik tadqiqotchilar tomonidan milliy hunarmandchilik tarixi, uning hozirgi rivojlanish xususiyatlari, hududiy o'ziga xosligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Rishton kulolchiligi, Marg'ilonda ipakchilik sohasi va to'quvchi hunarmandlar haqida K.Meklid, B.Мехъулар tomonidan berilgan ma'lumotlar uchraydi⁸.

Tadqiqotchi A.Q.To'xtaev o'z tadqiqotida ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sho'rolar tuzumi davrida milliy hunarmandchilik sanoat asosiga o'tkazilib,

⁴ P a n d e r K. Zentralasien. Ossifiedtm: Dumont Reisevertag. 2005. P. 384: Judith Pelts. Uzbekistan entdecken. Berlin, 2007. – 290 p.

⁵ K e l l e r G. Frauen culture in Uzbekistan Denzhngen / 2002. P. 288.

⁶ W o l l e n w e b e r B., F r a n k e P. Uzbekistan. Land zwischen Orient und Okzident. Berlin, Wostok, 2007. P. 91.

⁷ D e g e o r g e G., C h u v i n. Samarkand, Bukhara, Khiva. Paris. Flammarion, 2001. P. 230.

⁸ M a c l e o d C., M a y h e w B. Uzbekistan. The golden road to Samarkand. Hong Kohg. Odyssey, 2008. – 368 p.

an'anaviy "Ustoz-shogird" usuliga barham berilganligini-, uning o'rniga milliy hunarmand kadrlar tayyorlash siyosatini ilgari surishi va natijada, mahalliy an'analar, ustachilikning o'ziga xos uslublari yo'q bo'lib borganligini, oltin bilan bog'liq zargarlar va etikdo'zlik bilan bog'liq ko'nchilar faoliyati davlat tomonidan rasmiy taqiqlab qo'yilganligini qayd etgan. Tadqiqotchining hozirgi kun talablaridan kelib chiqib bergan takliflari quyidagilardan iborat:

"... - respublika qishloqlaridagi ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligidagi mavjud xomashyoni qayta ishlashga ixtisoslashgan kasanachilikka asoslangan ishlab chiqarishlar, xalq hunarmandchiligi korxonalarini tashkil qilish;

- ishsiz xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash uchun ularni kasanachilik va hunarmandchilik tarmoqlariga keng jalb qilish;

- milliy hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida an'anaviy hunarmand kadrlar tayyorlashning "ustoz-shogird" maktabini rasmiy qabul qilish va shu usulda o'qitishni yo'lga qo'yish;

- milliy hunarmandchilikni mahalliy va yengil sanoat tarmoqlariga qo'shmagan holda alohida hunarmandchilik vazirligini tashkil etish"⁹.

O'tgan o'n yil davomida tadqiqotchi bergan takliflarning barchasi bugungi kunda amalga oshirilmoqda. Jumladan, vazirlik maqomidagi O'zbekiston "Hunarmand" uyushmasi ham tashkil etilgan. Biroq, tarmoqning rivojlanishida uning ijtimoiy-geografik asoslari va mintaqaviy xususiyatlari muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov Farg'ona mintaqasi hunarmandchiligiga quyidagicha baho bergan:

"Farg'ona vodiysi milliy hunarmandchilikning atlas to'qish, kulolchilik, do'ppido'zlik, sandiqsozlik, yog'och o'ymakorligi kabi turlari qadim-qadimdan rivojlangan. Rishton kulolchilik maktabi vakllari Ibrohim Kamolov, Rustam Usmonov, Yo'ldoshali Polvonov, qo'qonlik yog'och o'ymakor Hasanjon Umarov,

⁹ Тўхтаев А. Қ. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни "социалистик" асосда sanoatlashтиришининг ижтимоий оқибатлари (1917–1941 йиллар): Тарих фан. ном. ... дис. автореф. Тошкент, 2001.

ganchkor Jamoliddin Erkaboev, kashtado'z Saddixon SHomurodova, marg'ilonlik do'ppido'z Tursunxon Nurmatova kabi qo'li gul murabbiylar ana shunday an'analarni avaylab-asrab, rivojlantirib kelishmoqda. Bu sohani yoshlarga bajonidil o'rgatishni istovchi yana yuzlab mohir hunarmandlar bor.

Bu sohada bor imkoniyatlardan kengroq foydalanib, hunarmandlarga mini kreditlar berishni takomillashtirish, ularga berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ko'rish zarur"¹⁰.

Yana bir tarix tadqiqotchisi U.A.Qilichev mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishini tadqiq etar ekan, milliy hunarmandchilik turizmning rivojlanish omili ekanligini ta'kidlaydi. U tadqiqot natijalariga tayanib quyidagi tavsiya va takliflarni ilgari suradi:

“... - milliy hunarmandchilik bilan bog'liq tashkilot, uyushma, qo'mita, jamg'armalarning huquqlari va amaliy faoliyati doirasini yanada kengaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- soha yuzasidan xalqaro aloqalarni yanada keng yo'lga qo'yish, sayyohlik ob'ektlarini jahon standartlari asosida jihozlash, qulay takliflar orqali turistlarni ko'proq jalb etish, shu jumladan, milliy- hunarmandchilik mahsulotlari sotiladigan bozorlar, markazlar faoliyatini yanada jonlantirish;

- Respublika “Hunarmand” uyushmasi muassisligida milliy hunarmandchilik tarixi yuzasidan ilmiy markaz tashkil etish;

- milliy hunarmandchilik tarixi yuzasidan respublika miqyosida anjumanlar tashkil etish¹¹.

Tadqiqotchining milliy hunarmandchilikni rivojlantirish turizmning taraqqiy etishidagi omil ekanligiga ahamiyat berganligi, hunarmandchilik tarixini rivojlantirish bo'yicha bergan tavsiya va takliflarini yuqori baholaymiz. Ammo,

¹⁰ И с л о м К а р и м о в И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2000. 8-том. 207-бет.

¹¹ Қ и л и ч е в У. А. Ўзбекистонда миллий хунармандчиликнинг ривожланиши (1991-2006 йй.): Тарих фан. ном. ... дис. автореф. Тошкент, 2010.

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslarini tadqiq etish o'ziga xos spetsifik dolzarblikka ega.

Turizm XXI asrda eng taraqqiy etadigan jarayon bo'lib, u eng muhim daromad manbaiga ham aylanadi. Turizm mamlakatlar xo'jalik tizimiga ta'sir ko'rsatib, uning xizmatlar ko'rsatish sohasiga ixtisoslashuviga ham sabab bo'ladi. Bugungi kunda turizm va xizmatlar ko'rsatish jarayonlariga oid ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Geograf-tadqiqotchilardan M.R.Usmonov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini (Samarqand viloyati misolida) tadqiq etishi natijasida respublikaning barcha mintaqalariga tegishli quyidagi mulohazalarni keltiradi:

Mintaqalarda turizm industriyasi va infratuzilmasini shakllantirish, ular bilan bog'liq masalalarga ustuvor ahamiyat berish kerak. Bu borada, xususan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo va Farg'ona vodiysida mazkur sohaga jiddiy yondoshish talab etiladi; mintaqalar turistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish va mavjud muammolarni o'rganishda so'rov tadqiqot usulidan keng ko'lamda foydalanish, turli bosqichdagi hududiy turistik majmualar shakllanishini takomillashtirish, kabilar shular jumlasidandir.

Umumjahon turizm sohasi so'nggi yarim asr davomida turli muammolarning salbiy ta'siriga uchradi. Tabiiy ofatlar va epidemiyalar, jiddiy ijtimoiy portlashlar va urushlar hamda jangovar harakatlar, iqtisodiy inqirozlar va terrorizm kabi hodisalar sohaning rivojlanishiga yetarlicha to'sqinlik ko'rsatdi. Ana shunday xavflarga qarshilik ko'rsatar ekan, turizm industriyasi murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlarga moslashish va faoliyat yuritish ko'nikmalarini o'zlashtirib oldi.

SHuni ta'kidlash lozimki, BMT ning umumjahon turizm tashkiloti (YuNVTO) ma'lumotiga ko'ra, 2007 yilda xalqaro turist-larning oqimi taxminan 6% ga ortgan va xorijiy mamlakatlarga tashrif buyurayotgan turistlarning umumiy soni 900 mln. nafarni tashkil etgan. Bu bor-yo'g'i ikki yil avval qayd etilgan va rekord natija sifatida e'tirof etilgan 800 mln. nafar turistik tashrif ko'rsatkichidan ancha

yuqori hisoblanadi. Dunyoning barcha mintaqalarida YuNVTO ning uzoq muddatli prognozlarida belgilangan ko'rsatkich-larning ortishi kuzatilgan. Misol uchun, dunyodagi eng yirik turis-tik mintaqa hisoblanuvchi Yevropada o'sish sur'ati 4% ni tashkil qilib, xalqaro turistik tashriflarning umumiy soni 480 milliondan ortib ketdi.

Biroq, YuNVTO ekspertlarining ta'kidlashicha, eng salmoqli o'zgarishlar sharqiy yo'nalishda sodir bo'lgan, holbuki rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyat qismi aynan SHarqda joylashgan. Xususan, so'nggi o'n yillikda yangi va jadal rivojlanayotgan bozorlardagi turizmning o'sish sur'ati 6–8 % ni tashkil qilgan, bu ko'rsatkich sanoati rivojlangan mamlakatlarnikiga qaraganda qariyb ikki barobar yuqoridir. Buni izohlay turib ta'kidlash zarurki, rivojlanmagan mamlakatlarning 70 % i uchun turizm sohasidan tushadigan daromad iqtisodiyotning katta ulushini tashkil qiladi.

2008 yil boshlarida voqealarning rivoji doimgidek kechayotgan edi. Yanvardan aprelgacha bo'lgan davr mobaynida (bu, odatda, turizm uchun eng yaxshi deb hisoblanmaydigan oylar bo'lsada, iqtisodiy inqiroz hali keng miqyosda tarqalmagan edi) turistik xizmatlarning dunyo bo'yicha hajmi biroz kamaygan bo'lsa-da (o'sish 5% ni tashkil qilgan edi), baribir YuNVTO ning uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlaridan 1% ga ortiq edi. Lekin, yil o'rtalariga borib turizm sohasida inqirozning salbiy ta'siri sezila boshladi. Joriy yilning yakuniga kelib umumjahon ekspertlar hamjamiyati tarmoqdagi ko'rsatkichlar pasayishini qayd etsa-da, baribir, uzoq muddatli prog-nozlarni ijobiy deb baholadi.

Jahon iqtisodiyotida jiddiy bo'hronlar kuzatilayapti va ular tobora kengayib bormoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlarining fikrlariga ko'ra, bu inqiroz Ikkinchi jahon urushidan ke-yin sodir bo'layotgan iqtisodiy tangliklar ichida eng kuchlisi bo'lib, tizimli xususiyatga ega. Inqiroz moliya bozorlarining parokanda bo'lishi bilan cheklanmasdan, Amerika va Yevropa bozorlarining eng muhim iste'mol sektorlarini izdan chiqardi.

YuNVTO tashkilotining bosh kotibi Franchesko Franjialling UNWTO News nashrining so'nggi sonidagi umumjahon turizm in-dustriyasiga qilgan murojaatida quyidagilar bayon etilgan:

“Real iqtisodiyot sohasini ham ishg'ol qilgan inqiroz turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi – iste'mol bo'yicha, shu jumladan transport va hordiq olish uchun sarflanadigan xarajatlar sezilarli darajada kamayib ketdi”.

Xalqaro turizm tashkiloti rahbarining fikricha, iste'mol xarajatlarning kamayishi, rivojlangan mamlakatlardagi turizm indus-triyasining o'zagi hisoblanmish kichik va o'rta biznesga juda kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Franchesko Franjialling fikricha, sodir bo'layotgan iqtisodiy bo'hronlar oqibatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari turizmdan ko'ra kamroq talofat ko'radi va shu bilan birga inqirozning salbi-y ta'sirini muayyan darajada yumshatib berishi mumkin. Lekin voqealarning sayohatlar va hordiq chiqarish industriyasi uchun salbiy stsenariy asosida kechishini ham inobatga olish lozimligini ta'kidlaydi-

YuNVTONing ekspertlar hamjamiyati o'z yetakchisi fikriga qo'shilgan holda, 2009 yilning bahorgi turistik mavsumi boshlanishiga qadar vaziyat yaxshilanishi borasida ancha ehtiyotkor va bosiq prognozlarni e'lon qilgan. SHu bilan birga, mutaxassislarning taxminiga ko'ra, sayohatlarga bo'lgan talab keyingi yilning yozida yana ortishi mumkin, buning uchun jahondagi iqtisodiy vaziyat hech bo'lmaganda hozirgi darajada qolishi kerak.

2008 yilning kirib kelishidan ancha avval, voqealarning ana shunday rivojlanishini oldini olgan holda, YuNVTO tashkiloti jahon turizmiga nisbatan qilinadigan inqiroziy xuruj ta'sirini qaytarishga qaratilgan tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan edi. Tashkilotning mas'ul xodimi, YuNVTO professori Piter Kellerga birinchi navbatda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar rejasini ishlab chiqish topshirilgan.

Ana shunday vazifalarning biri – bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy qaltisliklar va so'nggi yillarda sodir bo'lgan inqirozlarning oqibatlarini baholash,

ularning jahon turizmiga ta'sirini tahlili va, shuningdek, vaziyat o'zgarishiga sabab bo'luvchi eng muhim omillarni belgilashdan iborat.

Professor Keller guruhi tomonidan bajarilgan ishlar bo'yicha dastlabki natijalar "Jahon turizmidagi global disbalanslar va tuzilmaviy o'zgarishlar" deb nomlangan tadqiqotda YuNVTO ijroiya qo'mitasining 84-sessiyasida (Madrid, Ispaniya, 2008 yil oktyabr) e'lon qilingan edi. So'ngra, tegishli qo'shimchalar va tuzatishlar kiritilib, Londonda bo'lib o'tgan turizm yarmarkasida (World Travel Market-2008) taqdim etilgan.

Kellerning fikricha: "Uzoq muddatli prognozlarni belgilashda muayyan noaniqliklar mavjud bo'lsa-da, bugungi kundagi iqtisodiy tanglik (Evropada) hukm surgan sharoitda turizm barqaror sektor sifatida tan olinayapti".

SHu sabablarga ko'ra, YuNVTO Ijroiya kengashi tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilingan:

- o'z a'zolaridan tarkib topgan va YuNVTO ning haqiqiy va qo'shilgan a'zolari uchun ochiq bo'lgan "Turizm barqarorligi bo'yicha Qo'mita" (TRC – Toirizm Resilience Committee) tuzish;

- havo transporti va asosiy milliy turizm bozorlaridagi vaziyatga- alohida e'tibor bera turib, iqtisodiy ta'sirlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumot jamlash yo'li bilan, bu ishga har tomonlama ko'mak berish va qo'llab-quvvatlash;

- barcha manfaatdor tomonlarni zamonaviy texnologiyalar vositasida eng muhim va dolzarb ma'lumotlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish, inqirozning salbiy ta'sirlariga "tezkor javob qaytarish" amaliyotini qo'llash bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Ta'kidlash kerakki, bu YuNVTO tomonidan jahon turizm hamjamiyati kuchlarini tabiiy va texnogen xususiyatga ega inqiroziy vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilishga yo'naltirish bo'yicha tadbirlarning birinchisi emas.

Bir qator Osiyo mamlakatlarida turizm sohasi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarning ma'muriyati YuNVTO ning tavsiyalaridan unumli foydalanmoqda.

Umumjahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozining Osiyodagi turizm bozoriga ko'rsatayotgan ta'siri YuNVTONing Xitoyda yaqinda bo'lib o'tgan "Turizm va

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi uchun rivojlanish istiqbollari” ikkinchi konferentsiyasida ham muhokama qilingan. Mazkur forumda ishtirok etgan 25 mamalakatning 100 dan ortiq ekspertlari mintaqa rivojlanishida turizmning o’rni nihoyatda muhim ekanligini ta’kidlaganlar.

“YuNVTO barometri – 2008” ma’lumotlariga ko’ra Osiyo-Tinch okeani mintaqasi – turizm eng tez rivojlanayotgan mintaqa hisoblanadi, lekin bu yerda ham o’sish sur’ati pasayayotganligi kuzatimoqda. Masalan, 2008 yilning yanvar-oktyabr oylari mobaynida mazkur mintaqada xalqaro turistik tashriflarning umumiy o’sishi 3% ni tashkil etgan, vaholanki, 2007 yil uchun bu ko’rsatkich 10,5% ga teng bo’lgan edi.

O’sish sur’atining pasayishi, ayniqsa, neft narxining tez-tez o’zgarishi, mintaqaviy turmahsulotning transport bilan bog’liq tarkibiy qismi qimmatlashishiga va havo orqali yo’lovchi tashish hajmi kamayishiga olib keldi. Turizm sohasidagi ko’rsatkichlarning dunyo miqyosida pasayishi global xususiyat kasb etmoqda va mazkur mintaqaning turizm bo’yicha asosiy bozorlarida ham salbiy ta’sirlar kuzatilmoqda. Turizmdan tushayotgan mablag’larning umumiy hajmi to’g’risida hozirchalik aniq ma’lumotlar bo’lmasa-da, bu ko’rsatkich ham kamayishi kutilayapti: sayyohatlarning davomiyligi qisqargan, turistik xarajatlarda ham, jumladan istiqomat va ko’ngil ochar tomoshalar sohasida ham sezilarli darajada kamayish kuzatilmoqda.

Ekspertlar hamjamiyatining fikricha, qisqa muddatli prognozlarga ko’ra, turizm, garchi avvalgiga qaraganda ancha sekinroq bo’lsada, lekin yetarli darajada o’z mavqeini tiklashga va mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bu esa, o’z navbatida, mintaqaviy iqtisodiyot tiklanishida muhim omil bo’lishi mumkin.

YuNVTO qaroriga ko’ra quyidagilar belgilangan:

turizm mamlakat uchun, iqtisodiyotning boshqa sektorlariga qaraganda ko’proq afzalliklarni yaratib berishi mumkin, sababi – inson tabiatiga xos bo’lgan alohida mobillik mavjud, aynan shu xislat hisobiga turizm sohasi doim rivojlanib kelgan va rivojlanaveradi;

ishbilarmonlik va hordiq chiqarish bilan bog'liq turizm savdo-sotiq rivojlanishini rag'batlantiradi, kommunikatsiyalar kenga-yishiga turtki bo'lib xizmat qiladi va zamonaviy turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi;

turizm – xizmatlar eksportining eng yirik sektorlaridan bo'lib, dunyo miqyosida rivojlanishning eng ahamiyatli tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilaveradi.

Iqtisodiy inqirozning O'zbekistondagi turizm bozoriga ko'rsatayotgan ta'siriga bag'ishlangan va Orex CA. com. kompaniyasi bilan hamkorlikda 2008 yilning oktyabr–noyabr oylarida o'tkazilgan so'rov natijalariga qaytadigan bo'lsak, dastlabki xulosalarga ko'ra, mamlakat turizm bozorining, umuman olganda, jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan holatlarga nisbatan munosabatida xotirjamlik kuzatiladi. Lekin, masalaning yana bir jihatini ham nazarda tutish zarur. Odatda, turli ko'rinishdagi so'rovlarda uning ancha sustligi namoyon bo'ladi.

Mamlakatga tashrif buyurayotgan chet ellik turistlarning umumiy soniga e'tibor qaratilganda, turli firmalar uchun bu ko'rsatkich turlicha ekanligini hisobga olgan holda aytish mumkinki, O'zbekistonga turistik tashriflarning o'sish sur'atlari 35% dan 5% gachani tashkil etadi. SHu bilan birga, Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan “Silk Road Destination” firmasi ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy turoperatorlar tomonidan qabul qilinayotgan chet ellik sayyohlar sonining o'tgan yilgi ko'rsatkichlar darajasini agar Osiyo mintaqasidagi boshqa yo'nalishlar bo'yicha turistik ko'rsatkichlarning keskin ortishi bilan solishtirilsa, sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Turistlarni qabul qiluvchi va chet elga sayyohlarni jo'natuvchi turoperatorlarning aksariyati “Kelasi yillar uchun prognozlar qilishi mushkul vazifa, sababi inqiroz bizdagi narxlar shakllanishiga deyarli ta'sir ko'rsatmadi”, degan umumiy fikrni bildirdilar. Boshqa operatorlarning fikricha, “Agar, inqiroz tufayli mijozlarimizning xarid qilish imkoniyatlari pasayadigan bo'lsa, o'sishning umumiy sur'atlari ham pasayib ketadi. Biroq oldindan o'rinlarni band qilish bo'yicha ko'rsatkich darajasi ko'tarildi va bu ko'rsatkich 2009 yil uchun sayyohlik turlarini sotish jarayonida o'zgarishi ehtimoldan xoli emas”.

Turizmning O'zbekistonda shakllangan bozoriga umumiy baho berishda, turoperatorlarning aksariyat qismi iqtisodiyotning jahon bozori bilan integrallashuvining darajasi aytarli yuqori bo'lmagani uchun, biz umumjahon iqtisodiy va moliyaviy inqirozi oqibatlarining salbiy ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri his qilmayapmiz. Lekin mijozlarimizning xarid qilish imkoniyati pasayishi bilan bog'liq vaziyat, ayniqsa, tur operatorlarni havotirga solmoqda.

O'tgan asrning ikkinchi yarimidan hozirga qadar turistlarning asosiy oqimi Yevropaga qaratilgan. Buning sababi bevosita uning ijtimoiy-geografik o'rni qulayligi, kam sonli va ko'p millatli xalqlarning to'planganligi ya'ni, urf-odatlar va madaniyatlarning uyg'unlashuvi, turizmni targ'ib qilish jarayonining tezlashishi yoki axborotlar ko'lamining ortishi kabi omillardir. XX asrda insoniyat tarixidagi uyg'onish davri sifatida o'rta asrlarda Yevropadagi (XV asr va undan keyingi davr) san'at va madaniyatning rivojlanish davrini qayd etishadi. Biroq, bugungi kunda uyg'onish davri dastlab IX asrdan Osiyoda boshlanganligini yevropaliklarning o'zlari ham tan olishmoqda. Jumladan, O'rta Osiyoda bu davrda kulolchilik, zargarlik va zardo'zlik, misgarlik, kandakorlik va toshtaroshlik rivojlangan.

Kulolchilik miloddan avval 3 ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan. Keyinchalik loydan yasalgan idishlar maxsus xumdonlarda pishirilgan.

Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib, yerga sanchib qo'yilgan. Enolit davrida esa SHarq mamlakatlarida hamda qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik san'ati rivojlangan, me'morchilikda sopoldan foydalanila boshlagan.

VIII–XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda rivojlangan. Bu Afrosiyob va O'rta Osiyoning boshqa hududlaridan topilgan kulolchilik buyumlari misol bo'la oladi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati jadal sur'atlar bilan rivojlangan, bu yangi yuksalish davri bo'lgan. Ko'pgina olimlar, yozuvchi va mutafakkirlar (Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar) yetishib chiqqan. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik obidalari bunyod etilgan.

Mo'g'illar bosqini davrida Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va Balx yong'in ostida qolgan, oqibatda kulolchilik san'ati rivoji inqrozza yuz tutgan. Keyinchalik

XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo hududida kulolchilik yana jadal sur'atlar bilan rivojlangan.

Amir Temur hukmronligi davrida qadimiy Samarqand qiyofasi butunlay o'zgarib, yangicha usulda qayta qurilgan va u yanada go'zallashgan. SHaharda Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi va SHohizinda maqbarasi qurilgan. Amir Temur Samarqandni jahonning yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylantirish maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirgan. U, eng avvalo binokorlik, kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to'quvchilik va qog'oz ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishga katta e'tibor bergan. SHahar ichi va atrofidagi kosiblarni o'z hunarlariga qarab alohida guzarlarga joylashtirib, ular uchun yo'lning ikki tomoniga savdo do'konlari qurishga farmoish bergan. Bu do'konlar Bibixonim masjididan to SHerdor madrasasigacha cho'zilgan yo'lning ikki tomonini band qilgan. Amir Temur SHahrisabz va Samarqandga dunyoning ko'p joylaridan mohir hunarmand va qo'li gul ustalarni to'plab, u yerni yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylantirgan.

Sohibqiron shaharning shuhratini oshirish borasida ko'p sa'y-harakatlar qilgan. "Damashqdan fazl hunar egalarini, turli-tuman san'at ahillari – to'quvchilar, sangtaroshlar, duradgorlar, chodir tikuvchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, kamon va boshqa qurol-yaroqlar yasaydigan, shisha va sapol idishlar ishlab chiqaradigan hunarmandlarni Samarqandga olib kelgan", – deb yozadi Ispaniya elchisi Rui Ganzalis de Klavixo.

Sohibqiron har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biror fazilat va sharoit bo'lsa, shu kasbni egallashga g'oyatda mehr qo'ygan. Uning bevosita rahbarligida sopol idishlar – guldon, piyola, kosa, ko'za, xum va boshqa serjilo buyumlar, o'ymakor naqshlar, eshiklar, ustunlar, panjaralar, choynak, choyjo'sh, oftoba, jom, barkash, dastgo'y, hunarmandchilikning zargarlik, misgarlik, toshtaroshlik, shishasozlik, pichoqsozlik, egarchilik, aravasoqlik, chilangarlik, binokorlik kabi turlari yetakchi o'rin egallagan. Amir Temur hukmronligi davrida hunarmandchilikning nozik turlaridan biri – zargarlik san'ati ham yuksak darajada rivojlangan. Zargarlik buyumlarining eng nozik xillari oltin va kumushdan

tayyorlanib, unga feruza, la'l, yoqut, marvarid singari asl toshlardan bezak tushirib yanada sayqal berilgan. Bu davrda erkaklar uchun kamar va uzuklar, ayollarning boshiga kiyadigan bezaklar, tillaqosh, boloabru, zirak, tumorlar ko'plab tayyorlangan.

Amir Temur davlatining poytaxti Samarqand SHarqda yirik qog'oz ishlab chiqaruvchi markaz hisoblangan. Samarqandning g'oyat yupqa, nafis va silliqligi bilan ajralib turadigan oliy nav qog'ozlarining bozori chaqqon bo'lgan. Mirzo Bobur Samarqand qog'oziga yuqori baho berib: "Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddan chiqar, juvozi qog'ozlar suyi tamom Konigildan keladur", – deb yozgan edi.

Toshtaroshlik ham Amir Temur zamonasida juda taraqqiy etgan. Bu davrda Samarqandning o'zida 360 toshtaroshlik ustaxonasi bo'lib, 1000 dan ortiq odam shu hunar bilan kun kechirgan. Toshtaroshlar marmardan bezakli tovoq, guldon, lagan, kosa, shamdon va shu kabi ko'pgina uy-ro'zg'or idishlarini yasab, chetiga gir aylantirib fors tilida baytlar va arab tilida duolarni bo'rtma naqsh usulida bitishgan. Marmarga o'yib gul soluvchi mahalliy ustalar bu xil yozuvlarni husnixatda juda mohirona bitganlar. Ustalar bino panellari, eshik atroflari yoki binoning boshqa qismlari hamda sag'analar uchun qoplama sifatida ishlatish uchun marmar taxtachalar tayyorlaganlar¹².

Xorazmlik hunarmandlar XIX–XX asr Xiva kandakorlik an'analarini boyitadigan buyumlarni yaratganlar. 1930 yilda kooperativ arteli (korxonada) kulolchilik ishlari davom ettirilgan. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan.

Sopol mahsulotlarining turi juda ko'p bo'lib, ro'zg'orda (oziq-ovqat mahsulotlari, suv saqlanadiga ko'za, oftoba, xurma, gupi, xum, mashrafa; ovqatlanish uchun ishlatiladigan piyola, kosa, tovoq, lagan; shuningdek, shamdon, guldon kabi ro'zg'or buyumlari va boshqalar), arxitekturada (sopolak, koshin, quvur va boshqalar), hozirga qadar sanoatda (metallurgiya korxonalarida o'tga

¹² Соҳибкирон даврида хунармандчилик // Тошкент оқшоми, 2004 йил июль).

chidamli sopol qoliplar va shu kabilar) ko'p ishlatiladi. Bolalar o'yinchoqlari, ayrim bezak buyumlari (haykalcha, yirik haykallar) ham sopol dan tayyorlanadi.

O'rta Osiyo kulolchiligida feruza-zangori, to'q ko'k (kobalıt), yashil (mis oksidi) kabi sir turlari keng tarqalgan. O'tmishda sir va bo'yoqlarni kulollarning o'zlari tayyorlaganlar; Hozirgi kunda esa, ko'pincha, fabrikalarda tayyorlangan qo'rg'oshin sirlaridan foydalaniladi. O'rta Osiyoda sopol idish va buyumlar tayyorlashning keng tarqalgan ikki usuli mavjud:

Kulolchilik charxisiz, qo'lda ishlanadigan sirsiz sopol O'rta Osiyoning tog'li tumanlarida, ayniqsa Tojikistonning tog'li qishloqlarida, Pomirda rivojlangan. Bu yerlarda kulolchilik bilan, asosan, ayollar shug'ullanganlar.

Uzoq taraqqiyot davrini boshidan kechirgan, takomillashgan kulolchilik charxi yordamida tayyorlanadigan sirli sopol mahsulotlari Zarafshon, Surxondaryo, Amudaryo, Farg'ona, Xisor, Xorazm vohalarida rivojlangan bo'lib, bu yerlardagi kulolchilik, asosan, erkaklar kasbiga aylangan.

Zardo'zlik ham Osiyoda qadimiy tarixga ega. Qo'lyozmalarining guvohlik berishicha, zardo'zlik Osiyo, G'arbiy Yevropa, Turkiya va Afg'onistonda qadimdan mashhur bo'lgan. Arxeologik qazishmalar natijasida eramizning I–II asriga oid buyumlar topilgan. Alisher Navoiy, Beruniy, Fitrat kabi buyuk yozuvchi va olimlarimizning qo'lyozmalaridan bilamizki, zardo'zlik san'ati O'rta asrlarda ham mashhur bo'lgan, ammo u XX asrga kelib gullab-yashnagan.

O'rta Osiyoda misgarlik mashg'uloti haqidagi ma'lumotlar Geradot va Strabon asarlarida uchraydi. X asrda arab sayyohi va geografi Maqdisiyning yozishicha, arab mamlakatlariga o'sha davrda katta mis qozonlar, nafis mis qadahlar Samarqanddan, mis chiroqlar esa Buxorodan keltirilgan.

XI – XII asrlarda Termiz misgarlari ham mayda gul solish san'atida shuhrat qozongan. O'rta Osiyoda misgarlar XV – XVII asrlarda bronzadan buyumlar yasashga ko'proq e'tibor berishgan. IX – XI asrlarda shaharlar rivoj topib, hunarmandchilik keng yoyilgach, mis idishlar, qurollar, ot abzallariga, eshik va darvozalarning zanjir, zulfin, tutqichlariga o'yib naqsh tushurish san'ati yanada rivojlangan.

Arxeologik topilmalar o'ymakorlik san'atining O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida juda qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi. Buxoro, Samarqand, Hiva obidalari, shuningdek, Termiz, SHahrisabz, Qo'qon shahar va qishloqlarida saqlangan arxitektura yodgorliklari ganch, yog'och, tosh o'ymakorligi bilan jozibador bezatilganki, bezashning turli usul va uslublari O'rta Osiyo va O'zbekistonda o'ymakorlik san'atining yuksak darajaga ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati tufayli vujudga kelib, kishilik jamiyati rivoji oqibatida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqqan turli ijtimoiy formatsiyalar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha borgan sanoat ishlab chiqarish kurtagidir. Turli ixtisosliklar, ya'ni kashtachilik, zardo'zlik, zargarlik, do'ppido'zlik, kulolchilik, duradgorchilik, gilamchilik, to'quvchilik, tikuvchilik, misgarlik, temirchilik, binokorlik, o'ymakorlik va boshqalar ushbu jarayon natijasidir.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida mehnat taqsimotining chuqurlashishi bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 (uch) turi shakllangan:

- 1) uy hunarmandchiligi;
- 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.

Uy hunarmandchiligi kapitalizmga qadar bo'lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi.

SHaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rivoji bilan uzviy bog'liqdir.

Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangidan-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yi-cha ixtisoslasha bordilar. Ayrim kishilar mahallalar, shaharlar hunarmandchilikning ma'lum mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslasha bordilar.

Milodiy bir ming yillik va ikki ming yillikning boshlarida sharq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar Yevropa bozorlarida qadrlandi.

O'rta Osiyoda hunarmandchilik bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida O'rta Osiyoda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo'lgan. IX–X asrlarda ip-mato, gilam, shoyi, mis va temirdan yaroq-aslaha, pichoq tayyorlash avj olgan. XII–XIII asrlarda duradgorlik, tikuvchilik, etikdo'zlik, ko'nchilik kabi 40 dan ortiq hunarmandchilik turlari mavjud bo'lgan. XIII asrda mug'ullar bosqini tufayli hunarmandchilikning rivoji ancha sust-lashgan. XIV–XV asrlardan hunarmandchilik yana rivojlana borgan. O'rta Osiyoda hunarmandchilikning barcha turlari XX asrning 20-yillarigacha saqlangan. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik katta rol o'ynagan.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek hunarmandchiligining ahvoli yaxshilangan, ularning asosiy qismi dastlab artellarga keyinchalik esa zavod-fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga jalb qilingan.

Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik katta rol o'ynaydi. Hunarmandchilik keng tarqalgan hududlardan biri Farg'ona vodiysi hisoblanadi. Milliy hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan Farg'ona vodiysi qadimdan ilm-fan, madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan.

Qadimgi Rishton, Marg'ilon, SHohimardon, Andijon, Asaka, Pop, CHust, Qo'qon va boshqa shahar, qishloqlar hamda mahallalarda milliy hunarmandchilikning juda ko'p yo'nalishlari rivojlanib avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan.

1.2. Milliy xunarmandchilik va uning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati

Kulolchilik – hunarmandchilikning loydan turli-tuman buyumlar ishlanadigan sohasidir. Kulolchilik qora loydan mo''jizakor go'zallik yaratgan SHarqning eng qadimiy hamda navqiron san'ati hisoblanadi. Qora loy – saxovat va halollik timsolidir. Tuproq insonning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi – san'atning

zaminidir. Kulolchilik bilan dunyoning barcha xalqlari shug'ullanadilar. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl-mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlar sodda bo'lsada, ko'rinishi, saqlanishi, qismlarining aniqligi, naqshining badiiy joylanishi bilan o'zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan piyola, kosa, tovoq, xum, ko'za, lagan, tandir va boshqa buyumlar, turli-tuman o'yinchoqlar tayyorlanadigan sohadir.

Maxsus tuproqni o'ta qizdirganda toshsimon bo'lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlash mumkinligini odamlar qadimdan bilishgan.

Kulol ishlab chiqargan buyumlarida oq, yashil, lojuvard rang-lardan foydalangan. Bu ranglarni tayyorlash texnologiyasini hunarmandlar ham yaxshi bilishgan. Idish tayyorlagandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chizilgan, unga sir berilib, oftobda quritilib, pechda qizdirilgan. Ustalar sirni o'zlari tayyorlaganlar. Qoraqumga borib o'tin yig'ilgan va uni yoqib, kulini ustaxonaga olib kelib 3 qism kulga, 1 qism shisha kukuni qo'shilgan. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surilgan. Keyin bodiyani o'tda pishirishda unga yumaloq suyuqlik tashlangan. U o'tda bodiyaga o'ralib rangini o'zgartirgan. Qum kukunini suv bilan aralashtirib sovutilgan hamda tozalangan. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlangan, so'ngra bodiya sirtiga surtilgan.

Har bir hunarning o'ziga xos mashaqqati sir-asrorlari mavjud. Qadimda ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o'z shogirdlariga o'rgatib, o'zgalardan sir saqlashgan. Ota-bobolarimiz asrlar davomida kulolchilik sir-asrorlarini o'rganib, har bir mahsulotning sifatiga, badiiy qiymatiga, foydalanishda qulayligiga va uning umrboqiyiligiga alohida e'tibor berganlar. SHuning uchun ham ular tayyorlagan oddiy sopol piyoladan tortib SHarq me'morchiligini bezab turgan koshinlarning umrboqiyiligi hozirgi davrga qadar dunyo ahlini hayratga solmoqda. Bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan materiallardan keng foydalanib kelgan. O'tmishda tuproqdan qorachiroq, shamdon, sarxona, jomashov,

xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj kamayganligi uchun ular yo'qolib bormoqda. Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko'p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xomashyo tuproq hisoblanadi. Tuproqlaring sog' tuproq, qora tuproq, ko'kimtir, qizil loykor turlari bo'ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o'zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha guruhga bo'linadi.

Loyi guldon – sershira loy. Bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo'lib, jusha loyi qo'shilgan bo'ladi.

CHinni loy yoki oq loy – yarim foyans bo'lib, qoramtir loy, oqtosh va ishqor qo'shib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan va boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o'tga chidamli qoramtir loydan giltavaga oq tosh yoki oq qum qo'shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo'shib, undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog' tuproqqa qamish qozg'og'ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko'zagar loyi – 60-70 % plastik yog'li loy va 30-40 % sog' tuproqdan iborat bo'ladi. Undan xum, guldon, ko'za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamod, giltava, bo'yoqlar, angob, charx, mo'yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kogikord, taroq, tagi qalam, g'ugimak, tuppa va boshqalar ishlatiladi. Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib, uni tepib mushtlab pishiriladi. Loy tayyorlash uchun uyning ichki qismida hovuzga o'xshash uncha chuqur bo'lmagan joy ajratiladi. Bu hovuz pishiq g'ishtdan tayyorlanadi. Loy 20 kungacha har kuni suv sepib pishiriladi, shunda loy ichida to'planib qolgan havo yo'qoladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada qizdirganda o'sha bo'shliq yana kattalashib, idish teshik bo'lib qolishi mumkin. SHuning uchun loy qancha ko'p pishitilsa, shuncha sifatli mahsulot olinadi. Kulolchilik charxida idishlar tayyorlanadi. CHarx katta va kichik yog'och g'ildirakdan iborat bo'ladi.

Yog'och o'q bilan birlashtiriladi. Kulol charxining pastdagi katta g'ildiragini aylantirib turadi. Yuqoridagi g'ildirakka loy quyib, undan idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar yaxshilab quritiladi. Chunki yaxshilab quritilmasa, keyin pechda yorilib ketishi mumkin. Quritilgan idishlarni xumda qizdiriladi. Sirlanadigan idishlar sirlanadi va yana xumdonda qizdiriladi. Qadimdan kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladi. Masalan, kosagar, tandirchi, ko'zagar va boshqalar. Xorazm badiiy kulol ustalari qadimda o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lganlar. Ular koshin bodiya, xum va boshqa kulolchilik mahsulotlari ustiga beriladigan sirni tayyorlash uchun yozning jazirama issiq oylarida ko'hna Urganch tomonlardagi qumliklariga chiqib haftalab chog'on o'simligini to'plab, uni yoqib, kulini olib kelganlar. Hozir bu o't juda kamayib ketgan. Bu o'simlikdan tashqari, qora o'roqdan ham foydalangan. Sentyabr oylarida qora o'roq ayni shirachga to'lgan vaqtda faqat yengil patini yoqib kulidan ishqor tayyorlaganlar. Ustaxonaga olib keltirilgan chog'on va qora o'roqqa qum aralashtirib qo'lni namlab guvala qilinadi va xumbuzga qo'yiladi. Yuqori darajada qizdirish natijasida u pastki oxirga oqa boshlaydi u oppoq rangga kirgan bo'lsa, tayyor bo'ladi. Qoramtir tusda bo'lsa, bu jarayon yana qaytadan davom ettiriladi. Hosil bo'lgan oq toshsimon ishqorni tegirmonda un xoliga keltirib maydalanadi. Bu ishqor uniga bug'doy unidan atala pishirilib qozonda qorishtiriladi. Qozonga suv solinib, bulg'ab suyuq holatga keltiriladi. Hosil bo'lgan xomashyo tabiiy ishqor siri deb ataladi. Tabiiy ishqor siri tayyorlangan mahsulot yuziga cho'mich yordamida qo'yiladi. Pechda bu sir 1000–1200 daraja issiqlikda loyga shunday kirishib ketadiki, u issiq ham, sovuqda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydi. Kulolchilik bo'yoqlari tayyorlash ham o'ziga xos texnologiyaga ega.

Oq rang – bu rang oq tuproq va 11% gacha oqtoshning mayda qumini qo'shib tayyorlanadi. Uni atala xolida tayyorlab, buyum yuziga tekis suriladi va keyin naqsh chiziladi.

Yashil rang – mis kuyundisi kukuni, qo'rg'oshin, sir va o'tga chidamli tuproq, ya'ni giltava qo'shib tayyorlanadi. Mis kukuni avval qizg'ish rangda bo'ladi, xunbuzda pishirilganda yashil rangga aylanadi.

Qora rang – 15% giltava, marganets oksidi, lazurъ va qo'rg'oshin sirlarini qo'shib tayyorlanadi.

Sariq rang – yongan temir sop yoki mayda temir chiqindilaridan foydalanib temir kukuni mis qozonga solinadi va unga giltava, qo'rg'oshin siri hamda suv solib ezg'ilab tayyorlanadi.

Badiiy kulolchilik. O'zbekiston amaliy san'atining qadimiy, shuningdek, bizning davrmizgacha o'zining aniq chegaralangan maktab hamda an'analarini saqlab kelayotgan turlaridan biri – badiiy kulolchilik sanaladi. Zamonaviy kulolchilik san'ati XIX asrda tarixan shakllangan maktablarning an'anasi asosida rivojlanib kelmoqda.

Ma'lumki, o'zbek kulochilik san'ati qadim davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojini qondirib kelgan. O'zbekiston hududida qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari shakllangan. Bu markazlarda xalq ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan.

Hozirda badiiy bezatish uslubini plastik va texnologik xususiyatlari bo'yicha uchta asosiy kulolchilik maktablariga bo'lish mumkin: Farg'ona badiiy kulolchilik maktabi (Asosiy markazlari – Rishton, G'urumsaroy); Buxoro-Samarqand badiiy kulolchilik maktablari (Asosiy markazlari – Samarqand, Buxoro, Urgut, G'ijduvon); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (Asosiy markazlari – Madir va Kattabog' qishloqlari). Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijodiy tamo-yillari, yetakchi markaz va ustalari, boshqa maktablardan farqlanuvchi xususiyatlari bo'yicha belgilanadi. Ular o'z qonuniyatlari dorasida faoliyat ko'rsatadilar va asosiy badiiy tamoyillari umumiylikini saqlab keladi.

Farg'ona badiiy kulochilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog'liq.

Rishton – Farg'ona maktabining an'analarini o'zida mujassamlash-tirgan eng yorqin kulolchilik markazidir. Keyingi 30 yil ichida (1970 yillardan boshlab) Rishton sopoli an'anaviy-badiiy texnologik usullar asosida qayta tiklandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rishton – O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlar ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri edi.

Ishqorli sir tayyorlash ham yo'lga qo'yilgan. Hozirda bu yerda sopol idishlarning yapaloq (kosa va laganlar) uzun bo'yli (ko'za, xumlar) turlari ishlab chiqarilmoqda. Ilgari ishlar ixtisoslashtirilgan tarzda bajarilardi. Yapaloq buyumlarni yapaloq va qisqa bo'yli shakllar yasovchi ustalar – kosagar; baland bo'yli buyumlarni yasovchi ustalarni – ko'zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash avvalgi mohiyatini yo'qotgan: ayrim ustalar (I.Komilov, U.Ashurov, X.Sattorov, M.Azimov, M.Tojaliev va boshqalar) ham yapaloq, ham cho'zinchoq shaklli idishlarni yasashadi.

Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko'p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko'zga tashlanadi.

Kulolchilikda (idish tayyorlashda) charx asosiy ish quroli bo'lib hisoblanadi. Kulolchilik charxi katta va kichik ikki yog'och g'ildirakdan iborat bo'lib, yog'och o'q bilan o'zaro birlashtirilgan bo'ladi. Kulol pastdagi katta g'ildirakni oyog'i bilan aylantirib turadi, yuqoridagi g'ildirakning ustiga loy qo'yadi, unda idish tayyorlaydi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonda qizdiriladi. Idishlarning turiga ko'ra xumdon ham katta-kichik bo'ladi. Sirlanadigan idishlar esa sirlanib, shundan keyin yana bir martadan xumdonda qizdiriladi. Odatda, kulollar ma'lum idish yoki buyum bo'yicha ixtisoslashgan bo'ladilar (masalan, kosagar, ko'zagar, tandirchi va boshqalar)¹³.

Sopol, safol – loydan ishlanib, olovda qizdirib tayyorlanadigan mahsulot bo'lib, keramikaning ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Tarkibi bir jinsli, rangi ham bir xil bo'lgan maxsus tuproqdan olinib, dastlab oftobda quritilib, maydalanadi va elanadi, so'ngra esa undan loy qoriladi; bu loyga mahsulot turiga qarab ishlov beriladi, yaxshilab pishiriladi, keyin zuvala olinib, unga qo'lda yoki kulollik charxida shakl beriladi, quritilib gulxanda yoki xumdonda qizdirilib sopol tayyorlanadi.

¹³ Р а з в а д о в с к и й В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. Ташкент, 1916; П е щ е р е в а Е. М. Гончарное производство Средней Азии. М.; Л., 1959; Р а х и м о в М. К. Народные традиции в современной художественной керамике Узбекистана. Ташкент, 1964.; Т а ш х о д ж а е в Ш. С. Художественная поливная керамика Самарканда", IX – начала XIII вв. Ташкент, 1967.

Foydalanilgan tuproqning tarkibiga muvofiq ravishda sopol och-sariq, qizg'ish, kulrang, ko'kimtir, qizg'ish-jigarrang, qoramtir va boshqacha ranglarda bo'lishi mumkin. O'zbek kulollari sopol tayyorlashda ishlatiladigan tuproqni "sag'ir tuproq", "kulol tuproq" deb ataydilar. Uning tarkibi ishqorli, ohakli, temirli va boshqacha bo'lishi mumkin. Sopol loyini tayorlash, uni kerakli shaklga solish va o'tda qizdirish murakkab jarayon bo'lib, kuloldan uquv, bilim, malaka talab qiladi. Olov bir me'yorda yonmay, sekin yoki kuchli yonsa, sopol birak bo'lib qolishi mumkin. Sopol mustahkam va silliq bo'lishi uchun olovga chidamli oq yoki qizg'ish tuproqdan tayyorlanadigan suyuqlikka – loya (angob)ga chayib olinadi, keyin esa soyada quritib, xumdonda pishiriladi.

Sopolni badiiy bezatishning bir qator usullari mavjud. Bo'rtma (rel'ef hosil qilib), o'yma naqsh-gullar (mahsulot xo'lligida), qirma gullar (mahsulot loyga chayib olingandan so'ng), sir gullar esa xumdondan chiqqandan keyin ishlanib, keyin yana bir bor xumdonda qizdiriladi. Tog' jinslaridan, shishadan tayyorlab suriladigan sir sopolga yopishib, uni ham chidamli, ham nafis qiladi. O'rta Osiyoda, odatda, badiiy bezak sopol sirlangandan keyin amalga oshiriladi (tiniq yoki nimrang sir ustidan gul, ba'zan rasmlar ishlanadi).

O'zbekistonda gul-naqsh tushirishning 3 xil usuli keng tarqalgan:

Qalami – tasvir qalamsimon cho'tka yordamida ishlanadi;

Tamg'a – ilgari sholg'om, sabzi, qovoq kabilar o'yib tamg'a qilingan, Hozir esa rizinadan tayyorlanadi;

CHizma – qirqib chiziladi.

Sopol mahsulotlari tayyorlash va bezashning usul va uslublari davr talabi bilan o'zgarib, takomillashib bormoqda.

Masalan, idishning badiiy nafisligini ta'minlagan ishqorli surkama – ishqorli loyadan o'tmishda barcha kulollar ham foydalanganlar. Lekin, XX asr boshlarida undan foydalanilmay qo'yildi. Tojikistonning shimoliy hududlarida bu loy 1950 yillargacha ishlatildi. Hozir esa undan G'urumsaroy kulollarigina foydalanishadi. Bu surkama tiniq bo'lib, ba'zan unga qalay aralashtiriladi. Qalayli sirga qo'shilgan mis oksidi idishni yashil-zangori tusga kiritadi.

O'rta Osiyo kulollari sopol idish va buyumlarni bezashda bo'yoq sifatida metall oksididan foydalanadilar. Temir oksididan qizil va jigar rang; marganets oksididan qora va pushti-gunafsha rang; surma oksididan sariq rang; kobalt oksididan ko'k rang va qalay qo'shib feruza rang hosil qilib foydalanishgan.

O'zbek xalq hunarmandchiligi ichida zargarlik san'ati alohida o'rin egallaydi. Milliy hunarmandchiligimizning bu turi juda qadimdan rivojlangan bo'lib, uzoq tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolchayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Tosh asrining so'nggi davri (eramizgacha IV–III ming yilning oxiri)ga oid shildiroq munchoqlar, har xil toshlar, chig'anoq hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlik rivojlanganligidan dalolat beradi. Xorazmdagi Tuproqli devorlaridagi tasvirlardan o'sha davrdagi ayollar quloqlariga nafis taqinchoqlar taqishgani ma'lum bo'ladi. Bulardan tashqari, bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar I–IV asrlarga mansub bo'lib, Xorazmning Ayoq qal'a, Yetti asar, Burgut qal'a va boshqa joylaridan topilgan.

IV–V asrlarda ham zargarlik buyumlari ishlangan. Masalan, Xorazmda shishadan yasalgan sher, qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan. Bolalik tepadagi V asr oxiri – VI asrning boshlariga mansub devoriy rasmda erkaklarning qo'lida sovg'a taqinchoqlar ham tasvirlangan. Bundan tashqari, ayol sochlarida osma taqinchoqlar tasvirlangan.

X–XI asrlar o'rtasida bitta katta teshikli suyakli tugmalar ishlangan. XIV–XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo'lsa-da, nima uchundir bugungacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba'zi bir yozma manbalarda keltirilishicha, XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Tavois shahrida yashagan zargar, bundan tashqari Xusayinning o'g'li Muhammad zargar XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, Xo'ja Sulton Husayn zargar, Xo'ja bobo Do'stning o'g'li Xo'ja Hasan zargar nomlari bizgacha ma'lum bo'lib kelgan.

XVI asrda ishlangan jo'mrak bezagi zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali yetib kelgan. XIV–XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari murakkablashib boradi. XIII–XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko'pincha hayvonlar tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib, o'ziga xos ko'rinish berdi. Bu yozuvlar, bir tomondan naqsh bezagi, ikkinchi tomondan esa ma'no jihatdan farqlanar edi. XVIII asrda O'rta Osiyodagi o'zaro chetki nizolar zargarlik san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Keyinchalik xonliklar paydo bo'lishi bilan zargarlik yanada rivojlana boshladi¹⁴.

Misgarlik – misdan qurollar, uy-ro'zg'or ashyolari, turli buyumlar yasaydigan hunarmandchilikning qadimgi turlaridan hisoblanadi. Qadimda misgarlar sof misni sovuqlayin ishlaganlar, shu tufayli mis buyumlar yumshoq va mo'rt bo'lgan. Keyinroq esa misgarlar buyumlarni mis va qalay qotishmasidan hosil qilingan bronzadan yasaganlar va bunday buyumlar birmuncha pishiqroq bo'lgan.

Qurama tog'larining janubi-g'arbiy qismidan, Nurota va Qizilqum tog'laridan topilgan buyumlar (tarkibida mis ko'p bo'lgan bronza idishlar) misgarlikning O'zbekiston hududida ham qadimdan rivojlanganligini tasdiqlaydi. Naqshdor mis idishlar yasashning qadimiy markazi Buxoro bo'lgan. XVIII – XIX asrlarga kelib Buxoro, Samarqand, Qo'qon kabi shaharlarda a'lo sifatli mis va bronza idishlar, buyumlar yasash keng rivojlangan. Toshkent, Xiva kabi shaharlarda ham o'ziga xos misgarlik maktablari shakllangan. Misgarlar mis idishlarni, asosan, ikki xil yo'l bilan – eritib quyganlar yoki bolg'alab yasaganlar. Idishlarni bolg'alab yasashda, asosan, sandondan foydalanilgan. Buyumni yasash paytida metall tez-tez qizdirib turilgan. Tun (suv idish) yoki ko'za kabi murakkab idishlarni yasashda avval ayrim bo'laklari quyilib, so'ng ular bir-biriga qalaylangan. Buyum qolibidan ko'chirilgach, tozalanib, so'ng unga naqqoshlar gul tushirganlar. Misgarlik buyumlari ichida choydosh, oftoba, lagan, ko'za, qumg'on, tog'ora, barkash, samovar va boshqalar keng tarqalgan. Bu buyumlar Toshkent, Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi boshqa shaharlarning yangi texnika bilan jixozlangan misgarlik

¹⁴ Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана. Ташкент, 1998. С. 64.

artellarida (korxonalarida) hozir ham ishlab chiqarilmoqda. Toshkent ishlab chiqarish kooperatsiyasiga qarashli hunar-texnika maktabida professional misgarlar tayyorlanmoqda¹⁵.

Fanlar akademiyasi Tarix instituti O'zbekiston tarixi bo'limi xodimlari tomonidan respublikamiz viloyatlari va tumanlariga yiliga ikki martadan (1987 yildan boshlab qayta tiklangan) et-nografik va etnosotsiologik safarlar o'tkazilib kelinmoqda. Ana shu safar davomida, xalqimiz urf-odatlarini, madaniyati, turmush tarzi, an'ana va marosimlarini o'rganish bilan birga, hunarmandchilikka ham e'tibor berildi.

Kandakor (fors-tojik tilidan olingan bo'lib, *هذک* – kanda – o'yish, *راک* – kori – ish) deb metallga o'yib naqsh ishlovchi (*kandakorlik* bilan shug'ullanuvchi) hunarmandga aytiladi. Kandakor naqsh tushurgan idish yoki buyum **kandakori** deb ataladi (kandakori lagan, kandakori oftoba va h.k.).

Kandakorlik – amaliy san'at turlaridan biri hisoblanib, metall o'ymakorligidir. Arxeologik materiallar bu san'atning juda qadimiyligini tasdiqlaydi. Masalan, Farg'ona vodiysidan (Katta Farg'ona kanali qurilishida) topilgan bilaguzuklar. Amudaryo topilmalari orasida metallga o'yib ishlangan naqshlar uchraydi. Kushon podshohligida arab istilosiga qadar kandakorlik ancha rivoj topgan. O'rta Osiyoda o'simliksimon, geometrik naqshlar chizish, arabcha harflardan naqshga o'xshatib o'ymakori baytlar bitish san'ati avj olgan.

Kandakorlikda qush, hayvon, o'simliklarning tasvirlari va turli geometrik naqshlar ko'paydi. Temuriylar davrida metall idish, buyum va qurollarni bezatishning turli usul va uslublari vujudga keldi. Kandakorlik san'ati yanada nafislashdi (Masalan, Amir Temur- buyrug'i bilan Ahmad Yassaviy Maqbarasi uchun quydirilgan ulkan qozon. Ermitaj).

O'ymakorlik – amaliy bezak san'atining eng qadimiy va eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Yog'och, ganch, metall, tosh, suyak, lak, terrakota va

¹⁵ Сергеев Б. Ўзбекистонда мисгарлик. Тошкент, 1963; Занятие и быт народов Средней Азии // Среднеазиатский этнографический сборник. Т.3. Л., 1971.

boshqalarga o'yib, yo'nib badiiy shakl beriladi. Ulardan bino qismlarini bezashda, uy-ro'zg'or buyumlari, turli asbob, qurollarni nafislashtirishda, kichik haykaltaroshlik asarlari yaratishda foydalaniladi. O'ymakorlikning *yog'och o'ymakorligi (duradgorlik), ganch o'ymakorligi (ganchkorlik), tosh o'ymakorligi, metall o'ymakorligi (kandakorlik), suyak o'ymakorligi* kabi turlari mavjud.

Bu kabi qadimiy an'analar zamonaviy binolarni bezashda ham davom ettirilmoqda. Monumental binolarni yaratishda me'morlar bilan o'ymakor ustalarning azaliy hamkorligi sobiq ittifoq davrida ham davom ettirildi. Bu sohada ayniqsa A.V.SHchusev, S.N.Polupanov kabi atoqli arxitektorlarning faoliyati diqqatga loyiq. Usta SHirin Murodov, SHamsiddin G'afurov, Quli Jalilov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov kabi ganch o'ymakorlari, Ota Polvonov, Sulaymon Xo'jaev, Usmon Zufarov, Maqsud Qosimov, Ne'mat Ibrohimov, Qodirjon Haydarov, Nurullo Nazrullaev kabi yog'och o'ymakorlari qadimiy an'analarni yangi davr ruhi bilan boyitib, o'ymakorlik san'atini rivojlantirdilar. Keyingi yillarda tosh o'ymakorlari, kandakor ustalarning ijodiy faoliyatlariga ham keng imkoniyatlar yaratildi.

Hozirda o'ymakorlik usullaridan tasviriy san'at (grafika) asarlari yaratishda ham keng foydalanilmoqda (Masalan, gravyura, litografiya, linogravyura, ofort, ksilografiya).

Tosh o'ymakorligi – amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turlaridan biri. Arxeologiya materiallari toshni o'yib naqsh, tasvir hosil qilish san'ati juda qadimiyligini ko'rsatadi. Bunda yozuv, naqsh, tasvir relief (baland yoki yassi) hosil qilib, o'yib, qirib ishlanadi. Ishlatiladigan o'rni va bezakning maqsad-vazifasiga qarab, yumshoq (gipstosh, tal'koxlorit, ohaktosh va boshqalar), o'rtacha (malaxit, marmar va boshqalar), qattiq (nefrit, lazurit, yashma va boshqalar) toshlardan foydalaniladi. Tosh turlari *inkrustatsiya* qilinishi, o'zaro birlashtirilishi, zichlab-qalab mustahkamlab, keyin tosh o'ymakorligi bilan bezatilishi mumkin. O'zbekiston hududida tosh o'ymakorligining ilk namunalari neolit, enolit, bronza davrlariga mansub. Mineral va tog' jinslarining texnik xossalari o'rtaosiyolik ustalarga qadimdan ma'lum bo'lgan. O'rta Osiyoda yassi

releflı tosh o'ymakorligi rivoj topgan. Toshtaroshlik bilan shug'ullanuvchi ustalar XX asr boshlarigacha toshni kesish, yo'nish va bezash ishlarini ibtidoiy usullarda bajarganlar, ularning ish qurollari ham yog'ochsozlar, *yog'och o'ymakorligi* qurollariga juda o'xshash bo'lgan. Hozirgi vaqtga kelib, tosh o'ymakorligining asosiy qismi mexanizatsiyalashtirilgan.

Ofort (frantsuz tilidan olingan bo'lib, lau-forte – nitrat kislota) – gravyura (metall o'ymakorligi)ning keng tarqalgan turlaridan biridir. Bunda tasvir metall taxtaga kislota ta'sir ettirib hosil qilinadi. Tekis va silliq mis yoki qo'rg'oshin taxta sirti kislotaga chidamli lak bilan bo'yaladi. Keyin gravyura ignasi yordami bilan o'yib tasvir chiziladi. O'yilgan (qirilgan) joylar kislota ta'sirida yana chuqurlashadi va u yerga bo'yoq tushub, uning ottiskasida tasvir hosil bo'ladi. Bu usul rangli bosmada ham qo'llaniladi.

Ofort XVI asr boshlaridan ma'lum. Dastlab Germaniyada vujudga kelgan (temir taxtaga tuz kislotasi ta'sir ettirilgan). A. Dyurer va boshqalar atoqli rassomlar ko'pgina asarlarini shu usulda yaratganlar. Keyinchalik mis taxtaga azot kislotasi ishlatilgan.

XVII asrda Ofort Yevropa realist rassomlarining sevimli texnikasi bo'lib qoldi. A. Van Deyk, Rembrandt, F.Goyya, I. I. SHishkin, I. N. Kramskoy, I. Ye. Repin, V. A. Serov va boshqalar Ofort texnikasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdilar, shu yo'l bilan o'lmas asarlar yaratdilar.

Milliy kashtachilik – amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. O'zbek milliy kashtachiligi boshqa kasb-hunarlar bilan birgalikda rivojlangan¹⁶.

XIV–XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin.

Ispan elchisi Lui Ganzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligiga yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod “Zafarnoma”ga ishlangan “Temir taxtda” miniatyuurasida chodirga

¹⁶ Чепеловецкая Г. И. Каштачилик. Ўзбекистон сўзанаси; Р а с с у д о в а Р. Ўзбек каштачилик санати. Тошкент, 1961.

ishlangan kashtani ham aks ettiradi. O'zbek milliy kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi.

Kashtachilikning yana bir turi – bu applekatsiyadir. Applekatsiya – lotincha so'z bo'lib, “yopishtirish” degan ma'noni anglatadi va gazlama hamda qog'oz bo'laklaridan tayyorlanadi. Applekatsiya materialga rang-barang gazlama, qog'oz bo'laklarini yopishtirish yoki tikish bilan bezatishdir. Kashtachilikning bu turi o'ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofni choklab tikishadi.

Applekatsiyada ko'pincha chizma choklardan foydalaniladi. Kashtachilikning bu turi O'zbekistonda uncha rivojlanmagan. Hozirgi vaqtda ko'pincha bolalar kiyimlarida har xil gul, meva, qushlar va boshqa narsalar tasviri applekatsiya usuli bilan yasaladi.

Arxitekturada va biror buyumlarni bezashda applekatsiya usulidan keng foydalanilib kelinmoqda.

Kashtachilik turlari: O'rta Osiyoda kashtachilik keng taraqqiy etgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. SHuning uchun har bir xonadon pech, so'zana, darpech, oynahalta, choyhalta, choyshab va boshqa juda ko'p kashtachilik turlarini tikishgan. Masalan: so'zana, kirpech, choyshab, zardevor, palakgul, ko'rpa, dastro'mol, hamyoncha, joynamoz kabilar bilan bezatilgan.

Kashtalarda turli joylarda turli choklardan foydalanilgan. Masalan: Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko'proq yo'rma chok bilan tikilgan. O'zbek kashtalarida asosiy bezak matoning o'rtasiga tikiladi, hoshiyalari qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiyani bezatishga qaratilgan kashtalar ham ko'p uchraydi. SHahrisabzda kashtaning yo'rma, kanda xayol, iroqi turi rivojlangan Toshkentda esa ko'proq bosma chok tikilgan.

Milliy kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlarining ba'zi birlariga e'tibor berilsa, joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan masjid, madrasa va uylarda ham foydalanildi.

O'zbek kashtalari o'ziga xos go'zalligi, nafis bezaklarining rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda.

Milliy kashtachilikning turlaridan biri – zardo'zlikdir. **Zardo'zlik** – zar ip bilan naqsh tikish kasbi bo'lib, forscha zar (tilla), do'zi (tikmoq) so'zlaridan olingan. **Zardo'zlik** – xalq san'atining boshqa turlaridan farqli ravishda faqat saroy qoshida rivojlangan bo'lib, asosan saroy amaldorlari uchun xizmat qilgan. Bu san'atning ildizi qadim-qadimga borib taqaladi. Buxoro amirligi talabi bilan har xil zardo'z buyumlari tikilgan. Qizig'i shundaki, tikuvchilar faqat erkaklardan iborat bo'lgan. Turkiya, Arabiston, Hindiston va Frantsiyadan keltirilgan baxmaldan zardo'zi buyumlar tikilar edi. Bu buyumlar amir xonadoni, uning yaqinlari va amaldorlari uchun tikilgan... Zardo'zlik erkaklar to'ni – “joma”, harbiy kiyim – “kolyush”, baxmal etik – “mo'za”, ayollar to'ni – “kaltacha”, ko'ylak yoqa – “pesha kurta”, peshona bog'lash uchun – “peshona bog'”, do'ppi, ko'zgu halta, pul halta, otlar egar jabdug'ini bezovchi – “dauri” kabilarni tikishda keng qo'llanilgan.

Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Bobil bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar ipaklar va jun ip qo'shib tikilgan, rang-barang kashtachilik butun dunyoga mashhur bo'lgan. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyati qishloqlaridan birida o'tkazilgan arxeologik qazishmalarda ayol qabridan I–II asrlarga mansub zarbob kiyimlar topilgan. XVII asrda Samarqandda yashab ijod qilgan Fitratning asosiy kasbi ham zardo'z bo'lgan. U zardan bo'lgan ajoyib kashtalar tikkan.

Usta andozani va matoni olib, kashtaning ma'lum qismi uchun tayyorgarlik ko'rgan. Tikish uchun to'planma tayyorlashga o'tgan. Qog'ozga chizilgan naqshni teriga karton yoki qalin buyum yordamida tushirib qalam yoki bo'yoqda naqsh ustidan yurg'izib chizib chiqqan naqshlarni kartonga qirqib olgan. Gullar kesilganda chambarak hosil bo'lgan.

Tovar pishiq o'ralgan, matoni tikishga o'tilgan. Ayollar hamda erkaklar kiyimlari, so'zana, yostiq jildlari, joynamoz va boshqalar alohida korcho'pda tikilgan.

Gilamchilik – gilam to'qish kasbi, badiiy hunarmandchilik sohasidir. Gilamchilik qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan. Gilam o'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi yoki jun (echki, qo'y, tuya juni)dan tayyorlanadi. Gilam to'qish uchun qirqilgan jun yuvilib tozalanadi va temir taroqlarda taraladi, taralgan jundan ip yigiriladi. Ip esa turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. SHuning uchun gilamning ranglari o'zgarmaydi va sifatini ham yo'qotmaydi.

Hozirda gilamlar sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilamchilik rivojlangan joylarda to'quv dastgohlari ancha murakkablashtirilgan va bir necha to'quvchi yonma-yon o'tirib birdaniga to'kiyveradigan keng o'n g'altakli xillari ham yaratilgan. Gilamchilik paydo bo'lgan davrni aniq aytish qiyin. CHunki jun chidamsiz bo'lib, qadimda gilamlar saqlanmagan. Eng qadimgi gilam miloddan avvalgi VI–V asrlarga oid bo'lib, tog'li Oltoydan topilgan. U abadiy muzlikda bo'lgani uchun yaxshi saqlangan. Olimlarning taxminlariga ko'ra gilamchilik O'rta Osiyo qabilalari va forslar tomonidan tayyorlangan.

Qadimdan to ilk O'rta asrlargacha bo'lgan davrda gilamchilikka oid ma'lumotlar yozma manbalarda saqlangan. Saljuqiylar davrida gilamlar ko'proq tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga chiqarilgan. O'rta asrlarda gilamchilik uch yo'nalishda – ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalarida, o'troq aholi orasida va saroy ustaxonalarida rivojlangan.

Haykaltaroshlik. Istiqlol davrida haykaltaroshlik mafkuraviy, g'oyaviy olamning tarkibiy qismi sifatida shakllandi.

Haykaltaroshlarning ijodiy uslublari XX asrning 70–80-yillar an'alaridan keskin farq qilmasa-da, 1990 yillarda ijodiy targ'ibotlardan kelib chiqib, yaratilgan asrlarda yangi g'oyaviy, mafkuraviy muhit ta'siri, milliy hamda tarixiy mavzular ustuvorligi o'z aksini topdi va yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi. O'zbek xalqining tarixi va madaniy merosini haykaltaroshlar chuqur o'rganib, badiiy jarayonda ulug' ajdodlarimiz qiyofalarini yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atining mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asar sifatida CHirchiq shahrining markaziy shoh ko'chasiga va

poytaxtimizning Milliy bog'iga o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiyga atalgan yodgorliklarni keltirib o'tish joiz. Bu ikki yodgorlik badiiy sifat va xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. CHirchiq shahridagi Navoiy haykalining (A.Rahmatullaev, L.Ryabtsev, 1991) kompozitsion yechimi va plastik shakllari mualliflarning katta kasb mahoratiga ega ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Milliy bog'ning eng so'lim go'shasidan o'rin olgan Alisher Navoiy haykali (E.Aliev, N.Bandeladze, B.Dektyarov, 1991) esa o'zining sharqona ko'rinishi bilan farq qiladi. U bog'ning eng baland qismiga joylashtirilgan. Uning atrofini esa milliy uslubida ishlangan qovurg'asimon gumbazli ayvoncha va ko'kalamzor bog' o'rab turadi. Bronzadan yasalgan haykalda fozillik alomatlari o'z ifodasini topgan.

Ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy unsur esa, shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlashtiradi. Haykal ishlanish uslubiga ko'ra, umumlashma tarzda amalga oshirilgan. Ya'ni mayda detallar o'rnini umumiy yaxlitlik qamrab olgan. Haykaldagi mayda detallar faqat ko'krakdan tepa qismida, liboslar harakatida va yuz qiyofasida qo'llanilgan. SHoirning o'ng qo'lidagi hassa dinamik harakatni yuzaga keltirgan. Birgina ushbu detal orqali haykaltaroshlar obrazdagi turli ma'nolarni ochib berishga harakat qilishgan. Bu keksalik alomatining ifodaviy vositasidir. Tamoshabin uzoqdan turib shoirdagi keksalik alomatini hassa vositasi orqali idrok etadi. Haykalga yaqinlashgan sari hassadagi bu xususiyatlar ikkinchi darajali bo'lib, yuqoridagi ma'nolarning faolligi yuz qismiga almashinadi.

Navoiy obrazini yaratish yurtimizning ko'plab haykaltaroshlarini qiziqtirib kelgan. Bugungi kunda ham Navoiy obraziga murojaat etish haykaltaroshlik san'atida to'xtaganicha yo'q. 2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Rahmatullaev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan bo'yi 9 metrli haykalning o'rnatilganligi yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Haykaltaroshlikning mahobatli turida ijod qilayotganlar orasida akademik, O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ilhom Jabborov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, haykaltarosh Ravshan Mirtojievlarining ijodi alohida etiborga molik. Ular tomonidan yaratilgan

yodgorliklarni hozirda mamlakatimizning aksariyat viloyat va shaharlarida uchratish mumkin. SHu o'ringa I.Jabborov tomonidan yaratilgan buyuk Sohibqiron Amir Temur obrazi bilan bog'liq bir necha yodgorliklarni qayd etish joiz.

Jumladan, Toshkent shahrining gavjum xiyoboni markaziga o'rnatilgan Amir Temurning mahobatli haykali o'zining badiiyligi bilan ajralib turadi (I.Jabborov, K.Jabborov, 1993 y). Realistik uslubda ishlagan mazkur monumentda kuchli plastik harakatlar ko'zga tashlanadi. Amir Temurning kuchli, jo'shqin hissiyoti u mingan otning biroz badiiylashtirilgan ko'rinishi bilan birlashib, kompozitsion tuzilishi mukammallashtirilgan. Haykal shaklan betakror va mayda bezakli unsurlar bilan boyitilgan. Sohibqironning haykali 2 metrli takkursiga o'rnatilgan bo'lib, unga "Kuch – adolatdadir" hikmati bitilgan. I.Jabborov mazkur asar, "Yurtga qaytish", "Pand-nasihati" g'oyalari asosida yaratilganligini ta'kidlaydi. Monumentda go'yoki dushmanlarni yengib, jang maydonidan poytaxtga kirib kelgan Sohibqiron fuqarolarga bundan buyon davlat xavf-xatardan xoli bo'lgani, tinch-lik va farovon hayot bo'lajagini e'lon qilayotgandek tasvirlangan¹⁷. Sohibqironning ruhiy holat uning yuzida yaxshi ifodalangan.

1996 yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi. SHu yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida"gi (1994 y., 29.12. № 630; 1996 y., 16.08. №346F) qaror va farmoyishni qabul qildi. Ushbu qarorga ko'ra, Sohibqironning ona yurti SHahrisabzda va markazlashgan davlatning poytaxti Samarqandda unga atab yodgorliklar bunyod etildi. Bu ikki shahardagi Amir Temurning mahobatli haykallari (I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan yaratilgan) 1996 yili noyabr oyida ochilgan. Har ikki haykalni qiyosiy tahlil etadigan bo'lsak, ular bir-biridan farq qiladi.

SHahrisabzda qad roslagan haykalda (postamentining hajmi 7 metr; yodgorlik 8 metr) Sohibqiron o'z tasarrufidagi hududni har galgidek

¹⁷ Ўзбекистон санъати. Тошкент: Шарк, 2001. 26-бет.

nazoratdan o'tkazayotgandek ko'rinishda barpo etilgan. Buni biz postamentdan o'rin olgan cho'qqining ramziy ifodasi orqali ilg'ab olishimiz mumkin. Yodgorlikning baland poydevorga o'rnatilishi uning ulug'vorligini oshiradi.

Samarqandda bunyod etilgan haykalda (hajmi 6 metr) esa, Sohibqiron shohona libosda taxtda o'tirgan ko'rinishda yaratil-gan. Sohibqironning taxtda o'tirgan holatidan qalbini bezovta qilayotgan tug'yonlarni ilg'ab olish qiyin emas. Yuz tuzilishidagi keksaklik alomatlari har ikkala yodgorliklarning qiyofasida o'zaro o'xshashlik kasb etadi. Bu yodgorliklarning shaklu shamoyili, g'oyasi har xil bo'lsa-da, Amir Temur obrazi yetarli darajada ochib beril-gan.

Farg'ona shahriga o'rnatilgan yodgorlik ochiq osmon ostida zinalar bilan ko'tarilgan sun'iy balandlik ustida qad rostlagan. Haykal orqasi yarim doira ko'rinishida olti ustun va uning ustidagi uch qavat zinasimon sharafa-karniz bilan bajarilgan. Bu milliy uslubdagi me'moriy unsurlar yodgorlikning salobatini oshiradi.

Quvadagi yodgorlik biroz vazmin, o'ychan bo'lib, rotondo uslubida bajarilgan.

Tarixiy xotira – xalq manaviyatining asosidir. Ana shu asosda ma'naviy mulkimiz uchun butun hayotini Vatan ozodligi, xalq baxt-saodatiga baxshida etgan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi turadi. Bu dovyurak vatan himoyachisi xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1998 yili Hukumat qarori qabul qilindi. Haykaltarosh I.Jabborov tomonidan yaratilgan Jaloliddin obrazida milliy qahramon siymosi aniq talqin qilinganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilib, mazkur loyiha asosida Xorazmda yodgorlik barpo etildi.

1.3. Farg'ona vodiysining milliy xunarmandchilik va turizmni rivojlantirishdagi o'rni

Osiyo davlatlarining shaharlari hunarmandchilik buyumlarining pishiqligi va nafisligi bilan shuhrat qozongan.

Xitoy hunarmandlari o'zlarining zeb-ziynat buyumlari, qog'ozi, shoyi gazlamalari, chinni buyumlari va nafis kashtalari bilan mashhur bo'lishgan. Ular

dunyoda tengi yo'q 600 – 700 kishini sig'dira oladigan mustahkam kemalar yasaganlar.

Eron – gilamlari, Damashq (Suriya) – harbiy qurol-aslahalari, Samarqand esa sifatli qog'ozlari bilan dunyoga dong taratgan.

Mamlakatimiz tarixida SHarq Uyg'onish davri alohida o'rin tutadi, chunki ana shu davrdan boshlab fan va madaniyat, adabiyot va san'at rivojlanishi yuqori darajaga chiqq boshladi. Buyuk ipak yo'lining SHarqdan G'arbga, G'arbdan SHarqqa Turkiston orqali o'tishi esa Xiva, Urganch, Buxoro, Samarqand kabi ko'hna va qadimiy shaharlarimiz qatorida SHahrisabz, Kitob, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, SHahrixon, Namangan, CHust, Koson va nihoyat Toshkent singari shaharlarda ham savdo-sotiq gurkirab rivojlanishiga, hunarmandchilikning ravnaq topishiga, tashqi savdoning tobora kengayib borishiga, har tomonlama taraqqiyotga olib boradi. Ayniqsa, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi misli ko'rilmagan darajada rivoj topdi. Bu sohada faoliyat yurituvchi usta va shogirdlar hamda ularning maktablarining dovruq'i Buyuk ipak yo'li orqali har tomonga tobora yoyila bordi. Amaliy san'at va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar nafaqat iste'mol buyumlarini yasab qolmasdan, balki shunday san'at durdonalarini ham yaratar edilarki, endlikda ular milliy, madaniy merosimiz sifatida jahon bo'ylab namoyish qilinmoqda.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning bugungi muammolari haqida so'z borganda, bu sohaning tarixiga nazar tashlash joizdir. Azaldan SHarq milliy hunarmandchiligi va amaliy san'atning barcha turlari (zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, temirchilik, chilangarlik, duradgorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, ganchga, toshga, yog'ochga naqsh berish, musavvirlik, quruvchilik, kulolchilik, aravsozlik, tandirchilik, beshiksozlik, taqachi va egarchilik, mahsido'zlik, bo'zchilik va dastgohchilik, chorvachilik va kashtachilik do'ppi, to'n chorsi, hoshiya, jiyak tikuvchilik, sovunchilik, qandolatchilik, novvoychilik, teriga ishlov berish, tegirmonchilik, juvozkashlik kabi) rivojlangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning o'troq tumanlarida 108 mingdan ortiq hunarmandchilik korxonlariyu, do'konlari

bo'lib, ular yiliga 60 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarishgan. Bular qatoriga yakka yoki oilaviy tartibda mehnat qiluvchilar va amaliy san'at vakillarini qo'shadigan bo'lsak, Turkiston aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va amaliy san'at bilan shug'ullanganligining guvohi bo'lamiz. Har bir xalqning milliy madaniyati turdosh yoki o'zaro ta'sir yordamida rivojlansa, ikkalasining ham uyg'unlashgan holda ravnaq topishi muqarrardir. O'rta Osiyo mahalliy xalqlari, ya'ni o'zbek, turkman, qozoq, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarining madaniyati bunga yaqqol misoldir.

Ammo, XIX asr oxirlaridan boshlab ahvol batamom o'zgardi. Ya'ni CHor Rossiyasi tomonidan Turkistonning egallab olinishi natijasida, bu yerda yirik korxonalar tashkil topa boshladi. Bu jahon taraqqiyotida ob'ektiv holat bo'lib, u endilikda Turkistonni chetlab o'tishi mumkin emas edi. Xilma-xil shirkatlar, artellar, manufaktura, fabrika va zavodlarning oyoqqa tura boshlashi va ular tomonidan ko'plab miqdorda iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishi – qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning inqirozga uchrashiga olib keldi. CHunki qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning fabrika yoki zavod bilan raqobatlasha olmasligi muqarrar edi.

Bunday nohaqliklar hunarmandlar mehnatini qadrsizlantirdi. Endilikda bunday qatag'onlik munosabatlariga chiday olmagan hunarmandlar artelъ, fabrika va zavodlarga ishga o'tib ishlashga majbur bo'ldilar. Bu milliy xalq hunarmandchiligiga, uning amaliy san'atiga nisbatan ham siyosiy ham iqtisodiy shapko'rlik edi. CHunki, dunyoga dovrig'i ketgan, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atida durdonalar yaratgan, xalqni iste'mol buyumlari bilan ta'minlagan, ish bergan usta-yu, shogirdlar, hunarmandchilik va amaliy san'at maktablarining nomi ana shunday qabihlik va shapko'rlik evaziga tobora o'sa boshladi. Oqibat-natijada, jahonga mashhur Turkiston gilamlari-yu, naqshinkor zargarlik buyumlari-yu, tarixiy yodgorliklari, chinni idishlari-yu, shohi so'zanalarini, muzey yoki shaxsiy to'plam (kolleksiya)larda uchratish mumkin, xolos.

SHunday qilib, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati umummadaniyatimizning ajralmas qismi sifatida shunday sabablar evaziga inqirozga yuz tutdi. Kichik bir

misol: XIX asrning oxirida birgina Toshkentning SHayhontohur qismida 567 ta to'quvchilik do'konlari bor bo'lgan bo'lsa, 1912 yilga kelib, ulardan atigi 42 ta qolgan. Hozirda Toshkentning CHorsu bozori atrofida barmoq bilan sanoqli beshikchi, temirchi va duradgorchilik do'konlari qolgan, xolos. Ular ham bir iloj qilib, zo'rma-zo'raki tiklangan harobalardan iborat. SHu o'rinda shahar o'tmishiga bir nazar tashlasak, hunarmandchilik bilan bog'liq ko'chalar, daha va mahallar mavjud bo'lib, ularda hunarmandchilik yoki amaliy san'atning u yoki bu sohalari ishlab turar va bu ko'cha, mavze, daha, mahallalar egarchi, taqachi, bo'zchi, dukchi, zargarlik, degrezlik kabi nomlar bilan atalar edi. Ming afsuslar bo'lsinki, hozirgi kunda bundan deyarli asar ham qolmagan, chunki eskilik qoldig'i sifatida zamonaviy emas deb topilib, ularga zamonaviy nomlar berilgan. Bu misol respublikamiz hududidagi barcha ko'hna va azim shaharlarning barchasiga taaluqlidir, chunki, ularda ana shunday ahvol. Axir bular xalqimiz, shaharlarimiz merosi, qolaversa, bu joylarda yashovchi kosib va hunarmandlar avlodini, tarixini belgilovchi mezon edi-ku. Ma'lum bir ish yuzasidan kelgan mehmon, biror-bir ustaning nomini aytib, so'rab kelsa, u insonni ustaning turar joyiga yo'naltirish oson edi. CHunki bunday ko'cha, mavze va mahallalar nomi mashhur va uni deyarli yoshu, qari bilar edi.

CHust shahri qadimdan o'zining usta hunarmandlari va do'ppido'zlari bilan dong taratgan. Respublikamiz hududida, shuningdek, ko'pgina chet el davlatlarida CHust pichog'i, CHust do'ppisi ma'lum va mashhurdir. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha chustlik-lar qadimgi davrdan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishadi. Buni Bibiona, Varzik, G'ovada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan daliliy ashyolar orqali tarixchi olimlar V.Sprishevskiy, M.Varonets, Y.Qosimov, S.Baratov, A.Asqarovlar isbotlab berishgani ma'lum¹⁸.

Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha CHustda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida beshta paxta zavodi, bitta yog' zavodi, uchta cho'yan quyish zavodi mavjud bo'lgan. CHustlik hunarmand pichoqchilar tayyorlagan buyumlar

¹⁸ Республика давлат архиви, 19-ф, 1-рўйхат. 1893-дело, 910 бет.

g'oyat xaridorgir bo'lgan. CHust do'ppisi ham o'zining nafisligi qaytarilmas nusxalari bilan Marg'ilon, Qo'qon, Andijon do'ppilaridan keskin farq qiladi. Albatta, ta'kidlash lozimki, paxta zavodlari, boshqa ishlab chiqarish korxonalari boy-badavlat odamlarning xususiy korxonasi ekanligi sababli, kichik, kam quvvatli bo'lgan. Do'ppido'zlik bilan esa, ayollar yakka tartibda shug'ullanishgan. 1917 yilda butun Rossiya davlati hududlarida xalq hokimiyatini o'z qo'liga oldi. SHu davrdan boshlab, xususiy korxonalar, fabrika, zavodlar umumxalq mulkiga aylantirilgan. Yangi korxonalar qurila boshlandi. Ko'plab shaharlarda bo'lgani kabi CHustda ham korxonalar tashkil topa boshladi. Yakka tartibda mehnat qiluvchi hunarmandlar ham ittifoqlarga birlasha boshladi.

Dastlabki shunday artel "Ozodlik" nomi bilan 1927 yilda tashkil qilindi. Bu korxonalar Farg'ona shahar hunarmandchilik sanoati kengashi ixtiyorida bo'lgan¹⁹. Korxonada 250 kishi ishlar va asosiy ishlab chiqariladigan mahsulot tikuvchilik materiallaridan iborat edi.

1938 yilning 22 fevralida ana shu dastlabki korxonalar asosida tashkil etilgan "1 may" arteli ishga tushdi. "1 may arteli"ga bu davrda Muhammadjon Aminov rahbarlik qilgan. Artelning ishlabchiqarishi rivojlanishida u kishining hissasi kattadir. 1941–1945 yillardagi Ikkinchi jahon urushi davrida M.Aminov artelda qizil askarlar uchun issiq kiyim, pufaykalar tikishni yo'lga qo'ygan. Ishlayotgan ayollar har kuni issiq ovqat bilan ta'minlanishi, ish unumini oshirgan. Bu davrda "hamma narsa front uchun", "Hamma narsa g'alaba uchun" degan chaqiriqlarga binoan barcha korxonalar o'zlarining ishlab chiqarishlarini o'zgartirgan edilar²⁰. Ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan tugagach artel o'zining asosiy ishlab chiqariladigan mahsuloti – atlas, shoyi, beqasam va bo'z ishlab chiqarishni davom ettirgan. Bu jarayon 1960 yilga qadar davom etgan. 1960 yil 1 iyundan "1-may arteli" CHust Badiiy buyumlar fabrikasi deb nomlangan. Bu davrda eski tikuv dastgohlari ishlab chiqarishdan olib tashlangan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va

¹⁹ Республика давлат архиви, 19-ф, 1-рўйхат. 1458-дело.

²⁰ Республика давлат архиви, 19-ф, 1-рўйхат. 1458-дело.

turi o'zgargan. Asosiy ishlab chiqariladigan do'ppi yoniga popochilik mahsulotlari – so'zana, choyshab, belbog' va boshqalar qo'shilgan.

1988 yildan boshlab, badiiy buyumlar fabrikasi respublika mahalliy sanoat vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. Turli yillarda tsex boshliqlari, katta ustalar bo'lib, mehnat qilgan H. Xusanboeva, A.Ahmadjonov, H.Abdullaeva, A.Nasrullaev, SH.Abdullaeva, M.Jo'raeva kabilar fabrika mahsulotlarining tobora yaxshilanishiga o'zlarining munosib hissalarin qo'shdilar.

To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqish esa, Kosonsoyda yangi tashkil etilgan artelga o'tkazildi. Fabrikani rivojlantirish uchun ikki qavatli bino qurilishi amalga oshirildi. Bu yangi binoga so'rilar o'rnatilib, ayollarning do'ppi nusxalari O'zbekiston Respublikasining davlat narx qo'mitasiga olib borilib, ularning murakkabligiga mos ravishda narxlar belgilandi. Dastlabki davrda do'ppilar besh murakkablikda tikilgan va narxlari (o'sha davr narxlarida) 2 so'm 40 tiyindan 10 so'm 80 tiyingacha bo'lgan. 1966 yilga kelib badiiy buyumlar fabrikasida 1 mln. 620 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. SHu yilda fabrikaga Mahbuba Saidova direktor etib tayinlagan. 80 yillarning boshlarida sobiq KPSS Markaziy Qo'mitasining xalq hunuramandchilik sohalarini rivojlantirish to'g'risidagi qaroriga binoan CHust badiiy buyumlar fabrikasi ham kengaytirila boshlagan. Yangi zamonaviy tsex binolari qurilib, yuzdan ortiq popochilik dastgohlari o'rnatil-gan. 1980 yilga kelib, fabrikaning ishlab chiqarish quvvati 1966 yilga nisbatan ikki barobarga ko'tarilgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiy miqdori 3,3 mln. so'mga yetkazilgan. Fab-rika ishchi – xizmatchilari bolalarini tarbiyalash uchun bog'cha qurib ishga tushirilgan.

Fabrikada ishlovchi ayollar tomonidan tikilgan CHust do'ppilari bir necha bor jahon xalqlari amaliy san'ati ko'rgazmalarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallagan. Jumladan, Pol'sha respub-likasining Poznanь, Yaponiya davlatining Tokio shaharlarida o'tkazilgan ko'rgazmalarda faxrli o'rinlarni egallagan. CHust shahri ko'hna hunarmandchilik markazi sifatida dovrig'i butun dunyoga yoyilishiga mana shular ham sabab bo'lgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasining 1993 yilgi buyrug'iga asosan, CHust badiiy buyumlar fabrikasi "CHEvar" hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. Mazkur jamiyatda 1390 nafar ishchi xizmatchi mehnat qilishadi. Ular 1993 yilda 2,5 mln. so'mlik xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishdi.

CHust shahridagi yirik korxonalaridan biri paxta tozalash zavodi bo'lib, tumanda yetishtiriladigan paxtaning hammasi shu zavodda dast-labki qayta ishlovdan o'tkaziladi. Paxta zavodi 1936 yilda qurib ishga tushirilgan. CHustda paxta zavodi garchand ishga tushiril-gan bo'lsa ham elektrlashtirilmagan edi, – deb hikoya qiladi mehnat faxriysi A.Bobojonov. Zavod hududida Germaniyada tayyorlangan "MANN" markali ikkita katta dizellar bo'lib, barcha mexanizmlar shu dizellar kuchi bilan yuritilgan. Farg'onadan keltirilgan "Krasniy progress" dizeli esa, juda kam miqdorda elektr toki berar va zavod ehtiyojini qondirmas edi. Aholi uylarida esa elektr toki umuman bo'lmagan. Bir necha oy davomida zavodni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun CHust – Pop – Toshkent orasida shu reja doirasida katta ishlar amalga oshirilgan. SHu tariqa CHustda barcha hunarmandchilik markazlari xususan, do'ppi tikish tsexlari elektr energiyasi bilan ta'minlana boshlagan.

CHust shahri va tumanida hunarmandchilik qadimdan mavjud va ana shu hunarmandchilik turlarining rivojlanishi bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq. SHu sababli va aholini turli mahsulotlar, buyumlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida CHust tumanida 1932 yildan markazlashgan savdo tarmog'i – "Uztorg" tashkil etil-gan. 1936 yilda yangi savdo do'konlari ishga tushgan. 1947 yilda CHust tumanida matlubot jamiyati tashkil etilgan, uning tarkibiga CHust, SHo'rkent, Toshqo'rg'on, Karkidon, Varzik, Olmos va Hisorak qishloq matlubot jamiyatlari kiritilgan. 1950 yilda esa, bu matlubot jamiyatlari birlashib ikkita markazlashgan jamiyatga aylantirilgan. 1953 yildan 1957 yilga qadar RayPO (Tuman matlubot jamiyati)ning umumiy tovaroboroti (o'sha davr narxlarida) 30 mln. 286 ming so'mni tashkil etgan. 1962 yilning o'zidagina aholiga (1961 yilgi

pul almashganidan keyingi narxlarida) 9 mln. 207 ming so'mlik sanoat, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan.

CHustda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun xizmat ko'rsatuvchi maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari korxonasi 1936 yilda tashkil topgan. Dast-labki xizmat korxonasi "Qizil kuch" deb atalgan.

1940–1950 yillar mobaynida "Qizil poyafzalchilar", "Qizil yuk tashuvchilar", "XVI yillik" degan artellar faoliyat ko'rsatgan. 1960 yilga kelib ushbu artellar birlashtirilib "Rayprombit" kombinati tuzilgan. Korxonani birlashtirilib, uni yirik maishiy xizmat ko'rsatish korxonasiga aylantirilgan. Keyingi vaqtlarda korxonalar tarmoqlari rivojlanib, TEA, Avtotrans va boshqalar alohida korxonalarga ajralib chiqqan. 80-yillar boshlarida tumandagi barcha jamoa xo'jaliklarida maishiy xizmat uylari tashkil etilgan va ular uchun binolar qurilgan. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi tarkibida ishlaydigan ustalar 1970 yilda qurilib ishga tushirilgan milliy pichoqlar zavodida mehnat qila boshlagan. Zavodda pichoqchi ustalar avlodlari o'z mahsulotlarini xaridorgir bo'lishi uchun jon kuydirib mehnat qilishgan. Zavodda ishlab chiqarilgan mahsulotlar Hindistonning Nbyu-Deli, Turkiyaning Izmir, Polshaning Poz-nanь, Suriyaning Damashq shaharlarida o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan va diplomlar bilan munosib ravishda taqdirlangan. Agar 1971 yilda zavodda 114 kishi mehnat qilib, (o'sha davr narxlarida) 352 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1993 yilda 400 kishi 30 turdagi mahsulot ishlab chiqarib, umumiy mahsulot qiymati 191 mln. 912 ming so'mga yetkazilgan.

Hozirgi kunda CHustning o'z tamg'asi bilan 20 dan ortiq pichoq turlari mavjud. CHust pichog'i o'zining bejirim, betakror, rang-barang va keskirliги bilan boshqa milliy pichoqlardan ajralib turadi. SHu bois Farg'ona vodiysida bo'lgan har bir chet ellik mehmon CHust shahrida bo'lar ekan, CHustning bu bebaho milliy pichog'idan, albatta, sovg'a sifatida olib qaytadi. Biroq, muammo, bunday serqirra kasb egalari, xususan, mashaqqatli faqatgina CHust shahriga xos bo'lgan ixtisoslashgan mehnat resursi, hunarmandlar yetarli bo'lishiga qaramay ana shu

milliy g'ururimiz, sharq mash'ali CHustning bu noyob durdonalarini yaratish uchun, ko'plab ishlab chiqarish imkoniyati mavjud emas. Har oy 30 – 50 ming dona milliy – sovg'a (suvinir) pichoqlari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Mustaqillik yillarida CHust shahrida ham iqtisodiy islohotlar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Yurtimizda sanoat, xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy o'zgarishlarni izchillik bilan amalga oshirish yo'lida izlanishlar olib borilmoqda. Qishloq xo'jaligida fermerlik, xalq xo'jaligi sohalarida xususiylashtirish, tadbirkorlik muhim rol o'ynay boshladi. 1991 yildan beri o'tgan qisqa vaqt mobaynida badiiy buyumlar fabrikasi, paxta zavodi, qandolatchilik fabrikasi, tikuvchilik fabrikasi, pichoq zavozdi kabi korxonalar hissadorlik jamiyatiga aylantirildi (Biroq, CHustdagi mehnat resurslariga nisbatan bu korxonalar aholining mehnat bilan bandlik extiyojini qondira olmaydi).

Hunarmandchilik rivojlangan joyda albatta, uning tarixiy bozorlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. CHust bozori ham xuddi shunday sharqona xususiyatlarini saqlab qolgan bozorlardan biridir. Bozorda behisob hunarmand kosiblar, tikuvchilar, dehqonlar, davlat va shirkatlar buyumini sotuvchilar minglab xilma-xil buyumlarni oldi-sotdi qiladilar. Bunday bozorlarda topilmaydigan buyumning o'zi yo'q. Ayniqsa, bu bozorga CHust do'ppisi-yu, CHust pichog'ini xarid qilish uchun turli joylardan, hattoki xorijdan xaridorlar keladilar. Pichoq haqida so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor "Pichoq bu yarim rizq" degan xalqimizning hikmatli so'zi yodga keladi. Buning tagida ma'no ko'p. Tarixga bir nazar tashlasak, avvallari xalqimizning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lganligi, asosan chorvachilik bilan shug'ullanganligini ko'rishimiz mumkin. CHorvador xalq uchun esa, pichoqning bo'lishi bebahodir. CHunki, u yoki bu sababga ko'ra so'yilishi kerak bo'lgan hayvonni halolash uchun pichoq chorvadorning ajralmas ish quolidir. SHu sababli ham erkaklar doimo o'z yonlarida pichoq olib yurganlar. Pichoqqa talab juda katta bo'lgan va uni olib yurish rasm bo'lgan. Bu qoidaga qat'iy amal qilingan. SHu o'rinda o'zbeklarning pichoq osib yurishlarini noto'g'ri talqin qiluvchilarga, ya'ni

o'zbeklar pichoqni yovuz qurol sifatida taqib yurishadi deb atash noto'g'ri. To'g'ri yovuz qurol sifatida ishlatiladigan pichoq – xanjarlar turi ham bo'lgan, lekin ularda gulband yo'q va u shariatda haromdir. Bunday pichoq – xanjarlar janglarda, to'qnashuvlarda ishlatilgan va ular, asosan, boshqa xalqlardagi kabi lashkar yoki navkarlarda bo'lgan.

Pichoq bu milliy g'urur hisoblanib, u oshxona va dasturxonning bezagidir. Ro'zg'orimizning eng zarur vositasidir. Pichoq tayyorlash jarayoni ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, u tayyor pichoq, bo'lgunga qadar 76 marta qo'ldan qo'lga o'tadi. SHunday mehnat evaziga yasalgan dandon sopli, mis yoki kumush gulbandli pichoqlar, pichoqning ko'rinishiga alohida ko'rk baxsh etadi.

CHust do'ppisi o'zining nusxasi bilan boshqa do'ppilardan ajralib turadi. U go'zalligi va sifati bilan mashhurdir. *CHust do'ppisi*, to'ni, chorsisi va kashtalari-chi? Bular to'g'risida qancha yozsangiz shuncha oz. *CHust* bozoridan chiqib shahar aylansangiz, uning o'ziga xos yana bir xususiyatlaridan bahramand bo'lasiz. U ham bo'lsa, shahar hunarmandchiligining xilma-xilligidir. *CHust* azaldan hunarmandchilik sohasida mashhur bo'lgan va u yerda zargar, misgar, temirchi, tunukasoz, chilangar, kosib, duradgor, naqqosh, kashtado'z, tikuvchi, to'quvchi, pichoqchi kabi hunarmandlar, ustalarlar son-sanoqsiz bo'lgan. Hozir ham shahar xonadonlariga tashrif buyurar ekansiz, har ikki xonadonning birida do'ppi, to'n, chorsi, har xil kashtalar tikayotgan oilalarni, eshik va pichoq yasayotgan, yog'ochga naqsh berayotgan ustalarni ko'rasiz va ular yaratayotgan buyumlardan dilingiz quvonadi. Bunday hunarmandlar aksariyat yakka yoki oilaviy mehnat qiladilar, qolgan qismi esa, shaharda mehnat jamoalarida faoliyat ko'rsatadilar. Bu jamoalarda milliy pichoqning bir necha nusxasi, kashtachilikning so'zana, shohi so'zana, palang, alpak nusxalari, qandolatchilikning novvot, pashmak, rohat – luqum, holva kabi turlarini ko'plab tayyorlab iste'molga chiqaradilar. Ular tayyorlagan mahsulotlarning ba'zi birlari hatto xorijiy mamlakatlarda ham xaridor topmoqda.

2-BOB MILLIY XUNARMANDCHILIK VA TURIZMNING FARG'ONA VODIYSIDA IQTISODIY VA IJTIMOY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

2.1. Milliy hunarmandchilik – turizmni rivojlantirishning muhim omili

Farg'ona vodiysi qadimdan milliy hunarmandchilik markazidir.

Bunda vodiyning qadimdan ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Vodiydagi Rishton, Marg'ilon, SHohimardon, Andijon, Asaka, CHust, Pop, Qo'qon va boshqa shu kabi shaharlarda milliy hunarmandchilikning juda ko'p yo'nalishlari shakllanib, rivojlanib, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelgan. Mazkur shaharlar ichida CHust shahri alohida o'rin egallaydi.

CHust shahrida hunarmandchilik kundan-kunga o'sib bormoqda. CHust shahri qadimdan sanoat va hunarmandchilik shahridir. CHunonchi, CHust do'ppisi, CHust pichoqlari ko'p joylarda qadimdan tilga olib kelingan.

CHust pichoqlari Hindiston, Turkiya, Pol'sha, Suriyaning bir qator shaharlarida o'tkazilgan ko'rgazmalarda yuqori baholangan.

Buning muhim tomoni shundaki, mashhur CHust pichog'i va CHust do'ppisi, CHustlik alloma Mavloni Lutfulloning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekistonga keladigan sayyoh (turist) ko'pincha o'zbek milliy hunarmandchiligining shakl-shamoyili, ayrim ishlab chiqarilayotgan milliy hunarmandchilik mahsulotlarining tayyorlanish jarayoni bilan, albatta, qiziqadi.

Hozirgi kunda CHust shahrida bir necha hunarmandchilik kichik korxonalari ishlab turibdi. SHu jumladan, "CHust pichog'i" hissadorlik jamiyati. Bu korxonani 1970 yilda tashkil qilingan bo'lib, turli xildagi uy-ro'zg'or pichoqlari va sovg'a yodgorlik pichoqlari chiqara boshlagan.

CHust pichoqsozligining o'tmishdagi hunarmandlari inqilobga qadar pichoq tayyorlash uchun juda sarmashaqqat ishlarini bajargan. SHuning uchun pichoqchilik qiyin va sarmashaqqat hunar hisoblangan. Hunarmandlar kuniga 10-14 soatlab qorong'u va zax joylarda ishlaganlar.

1966 yilda respublikada mahalliy sanoat vazirligi bu sanoatni qaytadan tashkil etgandan so'ng, CHust shahrida CHust tumani mahalliy sanoat kombinati tashkil etilgan. Bu xol o'zining iqtisodiy samarasini ko'rsatdi. Kombinatda pichoq ishlab chiqarish rivojlangan va bitta ustaga yiliga 60-80 ming donadan milliy pichoqlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelgan. SHu tariqa CHust shahrida milliy pichoqsozlik rivojlandi va sayqal topgan.

Hozirgi vaqtda mahalliy ishlarni ayniqsa, maktab yoshidan boshlab o'quvchilarni mazkur kasblarga yo'naltirish bilan kelgusida ularni mehnat bilan ta'minlash borasidagi katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Pichoqlar ko'rinishiga ko'ra to'g'ri pichoq, qayqi pichoq, bodomcha pichoqlarga bo'linadi. Katta-kichikligiga ko'ra o'rta suyamlik, tezlik, bolapichoq, chalabuzor; bezatilishiga ko'ra sodda, guldor pichoq, chilmixagulli pichoq, rufta pichoq, suyaksopli, shoxdastali, dandonsopli, o'n uch sadafli; yasalish usuliga ko'ra (tus) CHust pichoq, Qorasuv pichoq, SHahrixon pichoq, Buxorocha pichoq, Poytug' pichoq, Qo'qon pichoq deb yuritiladi.

Pichoqchilik, pichoqsozlik – pichoq yasash kasbi bo'lib, hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Bronza davriga kelib, mis va bronzadan pichoq yasash avj olgan. Temirning kashf etilishi esa pichoqchilik taraqqiyotida juda katta o'zgarish yasadi. Gomerning “Iliada”, Geseodning “Mehnat va kunlar” asarlarida temir pichoq va uning xo'jalikdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar bor.

O'zbekiston hududidan miloddan avvalgi 2000 yillikka oid pichoqlar topilgan.

Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralarda (XV-XVII asrlar) yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xil namunalari ko'rsatilgan.

Farg'ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Surxondaryo va Qashqadaryoda pichoqchilikning qadimiy markazlari bo'lgan. Hozir O'zbekistonda 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari bor. Ularga: CHust bilan bir qatorda Parkent, SHahrixon, Qorasuv, Qo'qon, CHimyon, Boysun, Buxoro va boshqalar kiradi.

CHust, SHahrixon, Qorasuv (Farg'ona vodiysi)da ishlangan pichoqlar milliy shaklining nafisligi, ixcham va o'tkirligi bilan qimmatlidir. Bu pichoqlar respublikamizda va uning tashqarisida muhim sovg'a sifatida ham qadrlanadi.

CHust qadimdan o'z do'ppisi bilan ham ajralib turgan. Do'ppini yaxshilab o'rganish o'zligimizni anglashda, millatga xos xususiyatlarni aniqlashda muhim o'rin egallaydi.

Do'ppining turi va xillari ko'p: CHust do'ppi, Marg'iloniy, Andijoniy, Toshkandiy, setora, nozik do'ppi, chorgul, iroqi va hako'zolar. Hamma tomoni tekis to'rtburchak. Gumbazi bor, ammo yassigina, kiyganda boshga yopishib turadi.

Do'ppi oddiy ko'ringani bilan tuzilish va tikilish jihatidan murakkab va sermehnat. Uning to'rt tarafi bor. Har tarafining guldor devori bor, tovlanuvchi, qora jiyakdan gardish solingan: tomi gumbazsimon bo'lib, teng qattqlikdagi to'rt qismdan iboratki, bu qismlar konus shakliga ega. O'zbekistonda bir qancha do'ppido'zlik maktablari mavjud.

Binobarin, hozir ham uning ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan respublikamizdagi o'rta darajadagi boshqa shaharlar orasida o'z o'rnini bor. Bu borada CHust shahrida juda qadimdan shakllangan CHust hunarmandchiligi shaharning tarixiy milliy an'anaviy salohiyatidir.

O'zbekiston Respublikasida CHust shahriga uning pichoqsozligi, CHust do'ppisi, CHust zargarlari, uning temirchilik hunarmandchiligi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, chunki bu xalq hunarmandchiligining qadimiy turlari, xususan, CHust do'ppi tikish usullari azaldan CHustlik nafis san'at ijodkorlari CHust shahrida istiqomat qilgan momolarimiz qo'llarida hunar-kasb sifatida shakllangan, rivojlangan, sayqal topgan va "Ozodlik" nomi bilan 1920 yilda tashkil topgan Hozirgi "CHEvar" hissadorlik jamiyati darajasigacha rivojlanib kelmoqda.

Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy-geografik jihatlari O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng xo'jalik yuritishning hamma sohalarini, shu jumladan, sayyohlik sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. O'zbekiston butun dunyodan sayyohlarni jalb qilish imkonini beruvchi tabiiy va tarixiy obidalar, arxeologik yodgorlik-lar, rekreatsiya

xususiyatlariga ega bo'lgan xushmanzara joylarning ko'pligi bilan Markaziy Osiyoda alohida o'rin tutadi.

Hozirda 4 mingdan ortiq arxeologik yodgorliklar, 300dan ortiq shifobaxsh suv manbalari, daryolari va ko'llari, tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlari, tog' va tog' oldi vodiylariga egadir. Bu respublikamizda sayyohlikning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona vodiysi hunarmandchilik vodiysi bo'libgina qolmay, balki turizm ulkan bo'lgan markaz hamdir. CHust shahri O'rta Osiyo mintaqasidagi eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, u vodiydagi Erish, Koson, Axsikent, Quva kabi o'rta asr shaharlari bilan savdo-sotiq va iqtisodiy – madaniy sohalarda raqobat bo'lgan.

“Ozodlik” jamiyati dastlab Farg'ona shahridagi hunarmandchilik sanoati kengashi ixtiyorida bo'lgan 1936 yilda mazkur “Ozodlik” arteli “Yangi turmush” nomi bilan o'zgartirilgan. Artelda 250 kishi ishlab, do'ppi va tikuvchilik materiallari ishlab chiqargan. Sayyohlik hozirgi paytda ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiyotning daromad keltiruvchi muhim tarmog'iga aylangan. Uning samaradorligi jahon savdosida neft va avtomobil sanoatidan keyin 3-o'rinda turadi. SHunga ko'ra O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Jumladan, 1992yil “O'zbekturizm” milliy kompaniyasining tashkil etilishi O'zbekistonning barcha viloyatlarida turizmni rivojlantirishga turtki bo'ldi. Milliy kompaniyaning Namangan mintaqaviy bo'limida ham turli darajada ijobiy ishlar amalga oshirildi.

2000-2011 yillarda O'zbekiston Respublikasi va Farg'ona mintaqasiga tashrif buyurgan turistlarga xizmat ko'rsatish soni tahlil etilganda, 2000 yilda respublika bo'yicha tashrif buyurgan turistlar soniga nisbatan 2011 yilga kelib 2,8 martaga ortdi. Farg'ona mintaqasiga tashrif buyurgan turistlarga xizmat ko'rsatish soni esa 2,2 martaga ortgan. Yuqoridagi ko'rsatkichlar respublikaning va Farg'ona mintaqasining xizmat ko'rsatish salohiyatini to'liq ifodalamaydi. CHunki, keyingi yillarda turistik yuk sig'imi birmuncha ortganligi viloyatlarda yangi mehmonxonalar, transport tarmoqlari salohiyati ortganligi bilan izohlanadi.

SHunday ekan, mintaqaga turistlarni jalb etishni 2015 yilga qadar ikki hissaga va keyinchalik undan ham ortishiga erishish imkoniyatlari mavjud.

2011 yilda O'zbekiston mintaqalari bo'yicha xizmat ko'rsatilgan turistlar soni va foiz ko'rsatkichlari tahlil etilganda, eng yuqori ko'rsatkich Toshkent mintaqasi ulushiga to'g'ri kelib, 275, 6 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan. Bu jami ko'rsatilgan xizmatlarning 46 foizini tashkil qiladi. Ko'rsatilgan xizmatlar ulushiga ko'ra ikkinchi o'rinni Zarafshon mintaqasi egallaydi va jami ko'rsatilgan xizmatlarning 30 foizi mintaqa hissasiga to'g'ri keladi. Turistlarga xizmat ko'rsatishda keyingi o'rinni Farg'ona va Quyi Amudaryo mintaqalari egallaydi. Mintaqaning xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari Toshkent va Zarafshon mintaqalariga ko'ra past bo'lishiga qaramay, mintaqaning turistlarni jalb qilish va xizmat ko'rsatish salohiyatini oshirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, tabiiy, ekologik qulayliklar, sersuv mintaqa ekanligi uning salohiyatini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

2010 yildagi rekreatsiya ko'rsatkichlari tahlil etilganda respublika hududida 363,3 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan.

Xizmat ko'rsatish hajmi hududlar bo'yicha tahlil etilganda yetakchi hududlar sifatida Toshkent shahrida (148,0 ming kishiga), Xorazm viloyati (Xivada 104,2 ming kishiga), Buxoroda (46,7 ming kishiga) xizmat ko'rsatildi. SHu yil davomida Toshkent shahriga 93,3 ming, Buxoroga 41,4 ming, Xivaga 34,2 ming xorijlik sayyox tashrif buyurdi. MDH davlatlaridan sayyoxlarning kelishi Toshkent shahrida yuqori bo'lib, 13,3 ming kishini tashkil etdi, Buxoroga esa 1700 kishi keldi va boshqa viloyatlar ko'rsatkichlari ming kishiga yetmadi. Ichki sayyohlikda ham Xorazm yetakchilik qiladi.

1-jadval

**Sayyohlik firma va tashkilotlari tomonidan sayyohlarga xizmat
ko'rsatish (ming kishi)**

	ko'rsatilgan jami tashrif buyuruvchilar	SHundan;		
		CHet ellik tashrif buyuruvchilar	MDH mamlakatlarida n tashrif buyuruvchilar	O'zbekiston respublikasi
O'zbekiston Respublikasi	363,3	197,8	16,5	134,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,8	2,7	-	-
viloyatlar: Andijon	2,1	-	-	0,8
Buxoro	46,7	41,4	1,7	5,2
Jizzax	9,8	-	-	9,8
Qashqadaryo	19,3	10,6	0,16	8,3
Navoiy	3,4	1,4	-	-
Namangan	1,5	-	-	-
Samarqand	17,5	14,0	0,6	3,2
Surxondaryo	0,8	-	-	-
Sirdaryo	-	-	-	-
Toshkent	2,6	0,2	0,05	2,3
Farg'ona	4,3	-	-	3,4
Xorazm	104,2	34,2	0,7	70, 0
Toshkent sh.	148,0	93,3	13,3	31, 5

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2010 yilda respublikaning boshqa viloyatlaridan unga 70 ming sayyoh tashrif buyurdi. Xorazmning ichki rekreatsiyada yetakchiligining yana bir sababi shundaki, unga raqobatdosh bo'lish mumkin bo'lgan hudud bu Toshkent shahri bo'lib, unga asosan respublikaning ma'muriy markazi bo'lganligi bois rekreatsiya maqsadi tubdan farq qiladi, ya'ni turli anjumanlar, kasb va ish taqozasidagi yig'ilishlar sabab bo'ladi. SHu sababli rekreatsiyaning bu turini *kongress* yoki anjumanlar rekreatsiyasi deb atash mumkin.

2-jadval

2008-2010 yillarda dam olish muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	2008 yil		2009 yil		2010 yil	
	Dam olish muassasalari soni	Joylar soni	Dam olish muassasalari soni	Joylar soni	Dam olish muassasalari soni	Joylar soni
O'zbekiston Respublikasi	106	15567	114	16850	129	17318
Qoraqalpog'iston Respublikasi	-	-	2	160	4	605
viloyatlar:						
Andijon	-	-	-	-	1	50
Buxoro	-	-	-	-	1	38
Jizzax	2	166	4	80	6	227
Qashqadaryo	5	1189	5	1424	9	1927
Navoiy	2	322	2	332	1	292
Namangan	-	-	-	-	3	278
Samarqand	2	430	7	1225	7	707
Surxondaryo	7	1200	8	1561	9	1828
Sirdaryo	-	-	-	-	-	-

Toshkent	64	7886	61	8254	63	7969
Farg'ona	6	1475	9	1343	3	386
Xorazm	7	694	9	650	12	1308
Toshkent sh.	8	2178	7	1821	10	1703

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keyingi yillarda respublikada faoliyatda bo'lgan dam olish muassasalari soni ham ortib bormoqda. Ularning umumiy soni 2008 yilda 106 ni, 2009 yilda 144 tani tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 129 taga yetdi. 2008 yilda Toshkent viloyati, Toshkent shahri va Xorazm viloyatlari dam olish muassasalari va ulardagi joylar soniga ko'ra yetakchilik qildi. 2010 yilda ham dam olish muassasalari soniga ko'ra yuqoridagi viloyatlar yetakchiligini saqlab qoldi, biroq, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari Toshkent shahri va Xorazm viloyatlariga nisbatan joylar soni anchaga ortdi. SHuningdek, 2010 yilda Andijon, Buxoro va Namangan viloyatlarida ham dam olish muassasalari va ulardagi joylar sonida o'zgarish yuz berdi, biroq, Sirdaryo viloyatida dam olish muassasalari va ulardagi joylar sonida o'zgarishlar yuz bermadi.

3-jadval

Turizmda band bo'lgan ishchilar soni (kishi)

	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil
O'zbekiston Respublikasi	3491	3746	3379	3513
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13	20	23	32
viloyatlar:				
Andijon	101	54	53	60
Buxoro	82	77	180	247

Jizzax	3	16	17	7
Qashqadaryo	84	81	112	97
Navoiy	23	19	18	16
Namangan	17	14	16	32
Samarqand	800	992	761	762
Surxondaryo	18	3	12	13
Sirdaryo	1	-	2	5
Toshkent	58	11	18	22
Farg'ona	137	143	129	130
Xorazm	171	250	252	265
Toshkent sh.	1983	2066	1786	1822

Izoh: Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ma'lumki mustaqillik yillarida respublika bo'yicha xizmat ko'rsatish tarmog'ining ulushi ortib bordi. Xizmat ko'rsatishda turizm eng serdaromad va infratuzilmalarda o'zgarish talab qilinadigan soha hisoblanadi. Bu o'z navbatida aholi bandligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, keyingi yillarda turizmda band bo'lganlar soni respublikada o'rtacha 3,5 ming kishini tashkil etadi. 2008-2010 yillar davomida ham bu ko'rsatkichlarda tebranma o'zgarishlar yuz berdi. Bu holat respublikaning Buxoro va Xorazm viloyatlaridan boshqa barchasiga xos. Jumladan, Buxoroda turizmda band bo'lganlar soni 3 martaga va Xorazmda 1,5 martaga ortdi. Ammo, respublikada xizmat ko'rsatish tarmog'ining rekreatsiya yoki turizmda bandlik ko'rsatkichlarini bir necha o'n martaga oshirishga yetarli rekreatsion salohiyat mavjud. Keyingi yillarda tashkil etilayotgan "Asrlar sadosi", "SHarq taronalari" kabi an'anaviy festivallar hamda o'zbek xalqining milliy hunarmandchiligi maktablari ko'rgazmalari respublikaning barcha viloyatlarida o'ziga xos va bir birini takrorlamaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlar (2001yil) Namangan viloyatda sayyohlarga xizmat ko'rsatish hajmi va ulardan olingan foyda o'sib borish xususiyatiga ega ekanligini bildirmoqda (O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti 23-jild. Nazarov A.A. Sirojiddinova U. 112-bet).

CHunonchi, 1998 yilda sayyohlarga xizmat ko'rsatish hajmi 41055 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yilda bu ko'rsatkich 46660 ming so'mga, 2000 yilda esa 54442 ming so'mga yetgan.

Viloyatda rekreatsiya resurslarini mavjudligini inobatga olib, kelajakda kishilarning dam olishlarini samarali tashkil etish maqsadida qo'shimcha sayohat yo'nalishlari ochilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu yo'nalishlarni quyidagi tarixiy, madaniy, tabiiy ob'ektlar bo'yicha ochilishi mumkin.

1. Namangan-Axsikent.
2. Namangan-CHust-G'ovasoy.
3. Namangan-Kosonsoy.
4. Namangan-Nanay.
5. Namangan-Munchoqtepa.

Namangan shahrining o'zida sayyohlarni Usta mulla Qirg'iz madrasasi, Usta mulla Qirg'iz tomonidan qurilgan ota Valixonto'ra masjidi, Bobur nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i bilan tanishtirish mumkin.

Namangan-Axsikent yo'nalishi. Bu yo'nalishda Axsikent yodgorligi asosiy o'rin tutadi. Axsikent tarixiy yodgorligi Sirdaryoning o'ng sohilida joylashib hozirda tepaliklar ko'rinishida saqlanmoqda. Arxeologiya institutining xodimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra bu tepalaklar ostida 3 ta shahar barpo etilganligi aniqlandi. O'rta asrlarda Axsikent Farg'ona vodiysining iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazi hisoblangan. SHahar 1620 yilda sodir bo'lgan kuchli zilziladan vayron bo'lgan.

Namangan-CHust-G'ovasoy yo'nalishida o'z hunarmandlari bilan dong taratgan CHust shahri va xushmanzara joylari, juda ko'p rekreatsiya resurslari mavjudligi bilan ajralib turadi. G'ovasoy havzasi sayyohlarni dam olib hordiq

chiqarishida katta ahamiyatga ega. CHust hunarmandlari tomonidan tayyorlangan pichoqlar, CHust do'ppilari, so'zanalarini bejirimligi sayyohlarni tortadi. Ayniqsa shahar markazidagi "Mavlono Lutfulloh" nomidagi madaniyat va istirohat bog'i o'zining ulkan daraxtlari va zilol buloq suvlari bilan nafaqat vodiya, balki butun respublikada ajralib turadi. CHust shahridan 2 km shimolda G'ovasoy sohilida ko'hna tepalik mavjud bo'lib, bu xalq tili bilan yuritiladigan qishloqdir. Ana shu joyda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Buonamazor yodgorligi miloddan avval 2000-yillikning oxiri 1000-yillikning boshlariga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Buonamazorliklar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Bu yerdan topilgan dehqonchilik qurollari va g'alla saqlanadigan o'ra-omborlar, xumlarda saqlanib qolgan arpa, bug'doy, tariq, suli, no'xot qoldiqlari buni tasdiqlaydi.

G'ovasoy o'zining xushmanzara joylari toza havosi iqlimining o'ziga xosligi bilan kishilarning dam olishi uchun qulaydir. SHunga muvofiq G'ovasoy sohilida dam olish zonalari, bolalar oromgohlari barpo etilgan. Bu yo'nalishda sayyohlar tarixiy obidalar va xushmanzara so'lim joylar bilan bir vaqtda tanishishlariga imkon bo'ladi.

Namangan-Kosonsoy yo'nalishi. Kosonsoy o'zining arxeologik yodgorliklari va so'lim tabiati bilan vodiya muhim o'rin tutadi. Qadimgi Koson shahri qal'asi va minoralar qoldiqlari tepalik ko'rinishiga ega. Koson shahriga eramizdan avvalgi I chi asrda asos solingan bo'lib, u Kushon davlati hukmronlik qilgan davrda Farg'ona vodiysining bosh shahri hisoblangan, unda hunarmandchilik rivojlangan.

Kosonsoy daryosi sohillari rekreatsiya resurslariga boy. Ana shu maqsadda dam olish zonalari va bolalar oromgohlari barpo etilgan.

Namangan-Nanay yo'nalishi. Nanay qishlog'i viloyatning shimolida, Podshootasoy sohilida joylashgan. Qishloq tabiatining go'zalligi, toza tog' havosi, tezoqar Podshootasoy sayyohlarni miriqib dam olib, hordiq chiqarishlari uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi. Nanay qishlog'ida "Ko'ksaroy" turistik bazasi barpo etilgan bo'lib, unda yiliga 2500 dan ortiq kishilar dam oladilar. Bu yerda ham o'ziga xos sayohat yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular:

1. Podshoota – Sarichelak.

2. Ko'ksaroy tog'i.

3. Ko'ksaroy – Safedbulol deb nomlanadi.

Namangan-Munchoqtepa yo'nalishi. 1989 yil may oyida Munchoqtepa arxeologik yodgorliklarini qazish, g'oyat noyob Pop sag'anasi topilishiga sabab bo'ldi. Pop sag'anasi yer osti qurilmasi bo'lib, balandligi 2 metr, sathi 1,5 m² ni tashkil etadi. Sag'anada hammasi bo'lib, 47 ta tobut 5 qavat holda ustma-ust qo'yilgan. Tobutlar asosan qamishlardan yasalgan. Bu tobutlar har-xil yoshdagi erkak-lar va ayollar jasadi bo'lib, shundan 22-tobut saqlanib qolgan.

Topilmalar ichidagi idish-tovoqlar, to'quvchilik dastgohlarining qoldiqlari, qimmatbaho toshlardan va hayvon suyaklaridan yasalgan 10000 donaga yaqin munchoqlar, ko'hna musiqa asboblari bu yerda kulolchilik, to'qimachilik, hunarmandchilik kabi sohalar rivojlanganligidan darak beradi. Bu tarixiy yodgorliklar sayyohlar uchun qadimgi Farg'ona aholisining urf-odatlarini hududiy o'zlashtirish holatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayoti bo'yicha batafsil ma'lumotlar beradi. Namangan viloyati boy rekreatsiya resurslarini o'zlashtirish uchun investitsiyalarni jalb etish, yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish, sayyohlik xizmati orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun yetarli imkoniyatga egadir.

Demak, Namangan viloyatining iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm sohasi ustuvor yo'nalish deb qaralsa va bu sohani keng targ'ib etish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin.

Respublikada keyingi 10 yil davomida turistlarga xizmat ko'rsatish salohiyati 2,8 martaga o'sdi. Buning asosiy sabablari mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy va ilmiy-texnikaviy o'zgarishlar hamda O'zbekistonning jahon mamlakatlari xalqlari nazarida nufuzining ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

SHu bois, Farg'ona mintaqasida turizmni rivojlantirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim: birinchidan, mintaqa turistik salohiyatini ilmiy asosda o'rganish va baholash; ikkinchidan, mintaqa turistik salohiyatini turli tillarda namoyish etuvchi "Internet sayt"larini yaratish; uchinchidan, mintaqada sayohat turlari va bosqichlarini rivojlantirish; to'rtinchidan, sayyohlarga xizmat

ko'rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish va xizmat ko'rsatish madaniyatini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Bu kabi tadbirlarni amalga oshirish mintaqaning turistik salohiyatini oshirish va turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini taminlash uchun zamin yaratadi.

2.2. Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilikni ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyati

O'zbekiston qadimdan hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan. Allomalarning yozishicha, bu yerda 4,0 ming yil ilgari hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan. Unda, albatta, hozirgi vaqtda mavjud faoliyat turlari, asboblari yo'q edi. SHuning uchun ham hunarmandchilik mahsulotlari oddiy, sodda kundalik turmushda foydalaniladigan asbob-uskunalardan iborat bo'lgan edi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda hunarmandchilikni tiklash, uni aholi bandligi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirish borasida izchillik bilan ish olib borilmoqda. Bu yo'nalishda mamlakat ma'lum bir yutuqlarga ega bo'ldi.

O'zbekistonda hunarmandchilik bilan band bo'lgan aholi soni 2008 yilda 12013 kishini tashkil etdi. Bu 2005 yilgi ko'rsatkich (10076 kishi)dan 19,2% foizga ortiq hisoblanadi. SHunga qaramasdan hunarmandchilikda band bo'lganlarning soni jami bandlarning 0,1% ni tashkil etadi, xolos.

Hunarmandlarning soni va ulushiga binoan Respublikada Toshkent va SHahrixon shaharlari ancha yuqori ko'rsatkichlariga ega. Iqtisodiy mintaqalar ichida Farg'ona mintaqasi keskin ajralib turadi. Viloyatlar qatorida esa Andijon va Farg'ona viloyatlari mamlakatda peshqadamlik qilib kelmoqda.

Uning hissasiga hunarmandchilikda band bo'lganlardan 4516 kishi yoki 37,6 % i to'g'ri keladi. Mintaqa hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hissasi esa 66,3% ni yoki 24,2 mild so'mni tashkil etadi.

Farg'ona mintaqasi O'zbekistonda hunarmandchilikning quyidagi faoliyati turlar bo'yicha yetakchilik qiladi. Zardo'zlik, kashtachilik, popopchilik, chokli buyumchilik

mintaqa hissasi (90,2%), kosibchilik (80,9%) pichoqchilik, kandokorlik, temirchilik, tunikasozlik (74,9%), uy-ro'zg'or buyumlari yasash (72,3%), gilam, polos, namat to'qish, atlas to'qish, chopondo'zlik, do'ppido'zlik, gazlamaga gul bosish (71,0%), yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik (69,3%), charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash (63,5%), hajmi qoliplarda quyuvchi ustalarning ishlab chiqargan mahsuloti qiymati (51,4%) bo'yicha mintaqaning hissasi miniatyurachi rassomchilik, naqqoshlik va ganch o'ymakorligi, zargarlik bo'yicha 32-37%ni tashkil etadi. Uning hissasi faqat kulolchilik, tadirchilik, chinnisozlik hamda qo'g'irchoqsozlikda birmuncha past xolos.

Ko'pchilik ko'rsatkichlar bo'yicha umumiy ikkinchi o'rinni Toshkent mintaqasi egallaydi. Mazkur mintaqada O'zbekiston miqyosida kulolchilik, tadirchilik, chinnisozlik, minatyurachi rassomlik, zargarlik mahsulotlari qiymati bo'yicha hissalarini betakror hisoblanadi. Mintaqa undan tashqari naqqoshlik va ganch o'ymakorligi, charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash, kosibchilik, hajmi qoliplarda quyulgan mahsulotlar hamda yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik mahsulotlarining hajmlari bo'yicha ulushlari 10,3 dan 13,7 foizga o'zgarmoqda.

Zarafshon mintaqasi Farg'ona va Toshkent mintaqalariga nisbatan umumiy ko'rsatkichlar bo'yicha ancha orqada tursa ham u ba'zi-bir sohalardagi mavqelariga binoan yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, naqqoshlik va ganch o'ymakorligi hamda qo'g'irchoqsozlik mahsulotlarining hajmiga binoan u mamlakatda birinchi o'rinlarni egallaydi. Mintaqa hajmi qoliplarda gilam, polos, namat, atlas, chopon, do'ppi mahsulotlari hamda gazlamaga gul bosish hajmiga ko'ra uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish O'zbekistonda Farg'ona mintaqasidan keyin ikkinchi o'rinlarni egallab kelmoqda. SHu bilan birga mintaqada hunarmandchilikning qator soha va tarmoqlarini bo'sh rivojlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi chunonchi uy-ro'zg'or buyumlari hamda charmdo'zlik, egar-jabdug' anjomlari yasash, zargarlik, pichoqchilik, kondakorlik, temirchilik, tunikasozlik kabi hunarmandchilik sohalari

bo'sh rivojlangan. Umuman olganda, Zarafshon mintaqasi hunarmandchilik sohasining rivojlanganlik darajasiga binoan O'zbekistonda barqaror uchinchi o'rinni egallaydi. Lekin ikkinchi o'rinni egallab turgan Toshkent mintaqasidan 7 punktga orqada qolgan bo'lsa, to'rtinchi o'rindagi Quyi Amudaryo mintaqasidan uning ustunligi 9,3 punktga ega.

Mirzacho'l va Janubiy mintaqalarni hunarmandchilik bo'yicha mamlakatdagi mavqelari ancha past, mos holda 0,9 va 0,6% bilan belgilanadi. Lekin shunga qaramasdan ikkala mintaqada ham nisbatan yaxshi rivojlangan hunarmandchilik sohalari mavjud. SHundaylar qatoriga Mirzacho'l va Janubiy mintaqalarda pichoqchilik, kandakorlik, temirchilik, tunikasozlik, yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik kabi sohalar tashkil etmoqda.

Hunarmandchilikning hududiy tarkibini o'rganganda uni tashkil bo'lishida ustun ahamiyat kasb etuvchi omillarni ko'rsatish zarur. SHular qatoriga joyning ijtimoiy-geografik o'rni, uni jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, xalq mentaliteti va boshqa shu kabilar kiradi.

O'zbekiston hududi qadimgi movaraunaxr tsivilizatsiyasining markazida va Ipak yo'li chorrahasida joylashgan. Mana shu holat O'zbekistonda hunarmandchilikning rivojlanishi darajasini, uning tarmoqlari tarkibini belgilab beradi.

Eng muhimi ana shu belgi asosida mamlakatda mavjud hunarmandchilik markazlarini, ularning ixtisosliklarini aniqlash mumkin.

Farg'ona mintaqasi milliy hunarmandchilikda o'ziga xos mintaqa hisoblanadi. Milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda Andijon va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilishiga qaramay Namangan viloyati milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish turiga ko'ra mintaqada yetakchi maqomga ega.

CHust o'zining pichoqchiligi, kulolchilik va yog'och o'ymakorligi bo'yicha viloyatda alohida maqomga ega bo'lsa, Namangan shahrining o'zida xalq cholg'u asboblari, so'zana to'qish, kulolchilik, do'ppi tikish, shoyi va atlas to'qish,

shuningdek, yog'och o'ymakorligi va yog'och buyumlari yasash bo'yicha mintaqada o'ziga xos o'rin tutadi.

Mintaqaning Andijon viloyati Andijon shahrida do'ppi tikish, kulolchilik, gilam to'qish, so'zana to'qish va metal buyumlar yasashda; SHahrixonda pichoqchilik, teriga badiiy ishlov berish, shoyi va atlas to'qish, do'ppi tikish kabi hunarmandchilik mashg'ulotlari ommaviylashgan.

Farg'ona viloyatida hunarmandchilik eng rivojlangan shahar bu Marg'ilon bo'lib, unda mischilangarlik, kulolchilik, gilam to'qish, do'ppi tikish, shoyi va atlas to'qish, so'zana to'qish va Farg'ona shahrida qisman pichoqchilik kabi hunarmandchilik ishlab chiqarishi shakllangan.

Bunda mamlakatda mavjud hududlarning ijtimoiy-geografik o'rni, ya'ni ularni yashash va turmush kechirish uchun qulay bo'lgan voha va vodiylarda joylashganligi, shu bilan birga cho'l-yaylov, tog' oldi va tog' hududlarida ham yangi aholi manzillarining vujudga kelganligi kabi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda xohlagan hunarmandchilik markazini olib qaraganda, uni "Ipak yo'liga", tsivilizatsiyaga aloqador ekanligini bilish mumkin. SHuning uchun ham ana shunday markazlarning asosiy qismini Farg'ona va Zarafshon vodiylarida joylashganligi bejiz emas. Lekin ana shunday mintaqalarning ichida ham o'ziga xos "lider" shaharlarning mavjudligi e'tiborga molik bir holatdir. CHunki, Farg'ona vodiysida bunday "Lider"lar qatorida Andijon, Farg'ona yoki Namangan shaharlari emas, balki boshqa SHahrixon, Asaka shaharlarining yetakchilik qilishi qandaydir bir kutilmagan holatdek tuyuladi. Lekin, aslida vodiy ushbu markazlarning ijtimoiy-geografik o'rni, demografik salohiyati, band aholining tarkibi kabi omillar bilan asoslanishi mumkin.

O'zbekistonda yuqorida aytib o'tilgandek, hunarmandchilik keng amaldagi barcha tarmoqlari mavjud. Lekin ularning rivojlanganlik holati va darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. Bunda "Talab-taklif" kategoriyalari bilan birga mintaqada bo'lib o'tgan chuqur ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, iqtisodiy islohatlar muhim rol o'ynab kelmoqda.

Ota-bobolarining an'analarini davom ettirayotgan Marg'ilon shahar kosib hunarmandlari milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. "Hunarmand" uyushmasi va "Yodgorlik" firmasida ko'plab mohir ustalar mehnat qilmoqdalar. "Ustoz-shogird" maktablarida mehr bilan kasb-kor o'rgatilmoqda, Marg'ilon atlaslari, adraslari, ipak gilamlari, zargarlik va misgarlik buyumlari jahon ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda. Marg'ilon shahrida har yili hunarmandlar va tovar ishlab chiqaruvchilarning an'anaviy ko'rik tanlovlari o'tkazilmoqda. Hozirgi davrda ham Marg'ilonning usta hunarmandlari ajdodlar an'anasini davom ettirib, sifatli, nafis shoyi gazlamalar va atlaslari bilan jahon bozoriga chiqmoqdalar. Ulardan mohir atlaschi Turg'unboy Mirzahmedov, chitgar Solijon Ahmadaliev, zargar Abduhamid Abdujabborovlar BMTning "Xalqaro usta" unvoniga sazovor bo'ldilar.

Muqaddas ziyoratgohlar har bir xalqning tarixi va urf-odatlarini, diniy qarashlarini hamda milliy ruhiyatini, azaliy orzu armonlarini o'zida mujassam etadi. Binobarin, mamlakatda yuz bergan urushlar, qonli to'qnashuvlar, tabiiy ofatlar, ijtimoiy-iqtisodiy to'qnashuvlar yoxud shaxsiy oilaviy muosabatlarni boshidan kechirayotgan davrlarda, insonlar uchun muqaddas ziyoratgohlar boshpana vazifasini ham bajarib kelgan.

Muqaddas joylarni ziyorat qilish va shu asnoda diniy peshvolar va xalqning ishonchini qozonish har davrda ham hukmron sulolalar tashqi va ichki siyosatining muhim belgilaridan biri bo'lib kelgan. Asrlar o'tgan sari mazozlar haqida tushunchalar kishilar ongida muqaddas joy sifatida shakllanib, tabiat yodgorliklari, ko'hna manzilgohlar, arxeologik va madaniy me'moriy obidalar muqaddas ziyoratgohlar sifatida e'zozlanib kelingan.

Hozirda Marg'ilon shahri hududida o'ttizdan ortiq muqaddas ziyoratgohlar mavjud. Ushbu ziyoratgohlar Marg'ilonning olis va yaqin o'tmishini o'zida aks ettirganligi bilan ham g'oyat muqaddasdir. Binobarin, Xo'ja Ma'oz, SHoh Mansur, SHamsiddin Tabriziy, Pir Siddiq, Go'ri avval, Xo'ja Egiz, Yetti og'ayni botirlar, Qizil mozor, Xo'ja Langolang, Xo'ja Porso, Ulug' Hazrat Bobo, Yakkatut mozor ziyoratgohi, Ulug' mozor, Safilto'da ziyoratgohi, Uvaysiy ziyoratgohi, Kirgil

mazor ziyoratgohi, Ofoqxojam ziyoratgohi, Mo'yi muborak, Sochli Eshon singari ziyoratgohlar shular jumlasidandir.

XVIII-XIX asrlarda vodiy bo'ylab me'moriy binolar qurilishida keng tarqalgan farg'onacha peshtoqmaqbaraning me'moriy ko'rinishida o'ziga xoslik kasb etadi. Maqbara peshtog'i bezak berib ishlangan baland devorni eslatadi. Yon burchak ustunlari peshtoqdan ancha baland joylashgan yengil qafasali mezana bilan yakunlangan.

Marg'ilon ziyoratgohlarining har birida Movarounnahrda arablarning qilgan ilk yurishlari, qoraxoniylar, saljuqiylar, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar, shayboniylar va ashtarxoniylar, Qo'qon xonlari bilan bog'liq afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan. O'rta asrlarda mazkur ziyoratgohlar Xoja Ahror Valiy, Lutfilloh CHustiy kabi tariqat rahnamolari tomonidan ziyorat qilib turilganligi yozma manbalarda ham keltirib o'tilgan.

Marg'ilondagi muqaddas joylar mahalliy aholi tomonidan aziz-avliyolar yashab o'tgan makon sifatida qaralishi o'z navbatida mazkur yodgorliklarni tadqiq etish va ularning tarixini o'rganishga da'vat etagan.

O'zbekiston mustaqillikdan so'ng barcha sohalar qatori turizm, sayyohlik sohalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratdi. O'zbekistonda turistik imkoniyatga ega bo'lgan tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, rekreatsiya markazlari bilan bir qatorda hunarmandchilik imkoniyatlari ham O'rta Osiyo mamlakatlari ichida alohida o'rin egallaydi. Xususan, O'zbekiston hunarmandchiligi haqida gap ketganda, Farg'ona vodiysi – Rishton kulolchilik maktabini yodga olmay ilojimiz yo'q. Kulolchilik qadimiy san'at turi hisoblanadi. Ilmiy-tarixiy manbaalar ma'lumotiga ko'ra, lok-bo'yoq bilan bo'yalgan buyumlar ilk marotaba Buxoroda yasalgan. Bugungi kunga kelib, bularning ma'lum qismigina saqlanib qolgan. Ularni yaratish texnologiyasining siri yo'qolib ketgan.

Kulolchilik o'zining rivojlanishi davomida bevosita rassomchilik san'ati bilan uyg'unlashib ketgan. Har bir hunarmand o'z rassomlik mahorati bilan o'zi yaratgan buyumlarga o'ziga xos takrorlanmas tasvirlar ishlagan. 1976 yilda o'zbek usta va rassomlari qadimgi an'alarini tiklash maqsadida "ustaxona" ochishadi va unga

CHingiz Ahmarov rahbarlik qiladi. Rassomlar o'z tadqiqotlari natijasida sharq rassomlarining rasm chizish texnologiyalari bilan rus Fedoskino markazi ijodkorlari ishlariga bir-biriga yaqin bo'lganligini aytishadi. Barchaga ma'lumki, Palexa ikonalarini butun dunyoga mashhur bo'lgan. O'zbek miniatyuura san'atiniig ilk asarlari ham shunday texnologiyalar asosida ishlangan. O'rta asrlarda mashhur shoirlar asarlariga ham xuddi shunday miniatyuuralar ishlangan. O'sha davr mashhur kulollari ham o'z yaratmalariga shunga o'xshash miniatyuuralarni ishlaganlar. Bugungi kunga kelib miniatyuura san'ati o'z o'zni va mavqeiga ega.

Rishton qadimdan kulolchilik markazi bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rishton aholisining katta qismi kulollardan iborat bo'lgan. Bulardan mashhur kulollar Abdu Jalol, Abdulla kulol (1797- 1872 yillar), Abdul Qosim Boltaboy (1866-1960 yillar), Abdurasulev Madamin Oxun kabilarni sanab o'tishimiz mumkin. Keyinchalik XX asr boshlarida esa Farg'ona vodiysi Rishton kulolchilik maktabi ta'sirida G'urumsaroy, CHorku, Konibodom kabi markazlar shakllandi. Rishton loyi kulolchilik uchun juda qulay bo'lib, qizg'ish-sariq tusda bo'ladi. U asosan yer sathining 1-1,5 m chuqurligida uchraydi. SHu bilan bir qatorda kulollar atrofdagi tog'lardan kvarts qumi, o'tga chidamli tuproqni qo'shib turli xildagi buyumlar yasashgan. SHu davr mashhur usta kulollaridan Umarali Mo'minov (1904–1977 yillar), Haydar Usmonov (1907–1970 yillar), Xotamali va Qurbonali Polvonovlar (1936–1988 yillar) kulolchilik rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Rishton kulolchilik san'ati boshqa hududlar kulolchiligidan xilma -xil shakllari bilan ajralib turadi. Rishton kulolchilik maktabida nafaqat xo'jalik buyumlari, balki turli geometrik figuralar va ramziy ishlangan o'simlik, hayvonlar shakllari yaratilgan. Uning o'ziga xos an'anasi "ishkor" – ko'k keramikadir. 1960 yilga kelib kulolchilik maktabi ishi to'xtab qoldi. Farg'onada 1974 yilda o'tkazilgan San'atshunoslik Konferantsiyasida ushbu ishkor an'anasini qayta tiklash to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi. Oxirgi 20 yil ichida maktab an'analari qayta tiklandi va rivojlantirildi. Hozirgi kunda esa Rishtonda usta kulollardan Qodirali Polvonov, Hayot Raximov, Asror Usmonov va Alisher Nazirovlar kulolchilik sir-asrorlarini saqlab kelmoqdalar. SHuningdek, bir qator oilaviy kulollar ham o'z ishlarini

namoyish etib kelmoqdalar. Hozirgi kungacha Rishtonda 1000 dan ortiq usta kulollar ishlaganlar. O'zbekistonda, xususan, Farg'ona vodiysida hunarmandchilikning rinojlantirilishi, O'zbekistonda turizmni yanada taraqqiy etishida muhim omil hisoblanadi.

2.3. Farg'ona vodiysida milliy hunarmandchilik va turizmni rivojlantirishning muhim geografik yo'nalishlari va istiqbollari

Rekreatsiya resurslardan foydalanish masalasi har qanday mamlakat uchun iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi, dolzarb muammodir. Bu ayniqsa dunyo okeani va uning qismlariga xos bo'lgan dam olish va davolanish maskanlaridan, jahon miqyosidagi turli xil turistik ob'ektlardan yiroqda joylashgan mamlakatlar uchun betakror iqtisodiy ahamiyatga ega. SHunga qaramasdan materik ichkarisida okeanlardan uzoqda joylashgan ba'zi bir mamlakatlar ham o'ziga xos rekreatsiya resurslariga, turistik maskanlarga ega. Ana shundaylar qatoriga O'rta Osiyodagi barcha mamlakatlarni kiritish mumkin. Mintaqada joylashgan ayrim tabiiy-ijtimoiy-geografik tarixiy-madaniy, iqtisodiy-geografik o'lka, tuman, vodiy yoki voha ham ma'lum darajada rekreatsiya va turizm resurslariga, turistik ob'ektlariga boy. Mazkur ob'ektlar qatoriga dastavval Farg'ona va Zarafshon vodiylarini, Xorazm vohasini kiritish mumkin. Farg'ona vodiysi, ayniqsa, rekreatsiya resurslariga boydir. Uning O'zbekiston qismidagi hududida CHortoq va CHimyon sanotoriyalari, qator dam olish maskanlari va ommaviy saylgohlar joylashganki, ularda yiliga bir necha yuz minglab mahalliy aholi hamda yaqin va uzoq xorijdan kelgan insonlar dam oladi, davolanadi va turli xildagi sport turizmi bilan shug'ullanadi.

Dam olish davolanish va sport turizmi sohasida O'zbekistonga rasmiy tarzda yiliga yarim milliondan ortiq kishi tashrif buyurmoqda.

Keluvchilarning barchasiga mutanosib holda xizmat ko'rsatilmoqda. Mamlakatimizga ana shu maqsadlarda tashrif buyurgan va uning hududidan xuddi ana shu maqsadlarda chiqqib ketgan kishilarning soni faqat 2000-2007 yillarning

o'zida salkam 2,9 martaga oshdi va 583,7 ming kishini tashkil qildi. Ularga ko'rsatilgan xizmat hajmi kuniga 1659,0 kishiga teng bo'ldi. (1659 kishi/kun).

Jami kelgan va ketganlarning 524,5 ming kishiga teng qismi yoki 89,9 foizi qabul qilinganlar qatorini, 59,2 ming kishiga teng qismi yoki 10,1 foizi esa mamlakat tashqarisiga ketganlardan tashkil topgan. Qabul qilinganlarning 300,7 ming kishining teng qismi yoki 51,5 foizi xorijlik fuqarolardan iborat. Mamlakat tashqarisiga yuborilganlar ichida uzoq xorij fuqarolari 22,4 ming kishini (38 foizi) tashkil qiladi.

Kelganlar va ketganlar umumiy soni deyarli 2,9 martaga oshgani holda ushbu ko'rsatkich kelganlar bo'yicha 3,2 martaga teng bo'ldi. Mamlakat hududidan tashqariga yuborilganlarning umumiy soni bor-yo'g'i 1,4 martaga o'sdi. SHulardan uzoq xorijiy mamlakatlarga yuborilganlar soni 3,7 martaga ko'paygan holda, MDH mamlakatlariga kelganlar soni deyarli sakkiz martaga qisqardi.

Turistik firmalar va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan kelgan ketganlar soni va ularga xizmat ko'rsatish hajmi O'zbekiston mintaqalari bo'yicha turli xil ko'rsatkichlarga ega. Respublika bo'yicha mavjud ko'rsatkichlarning eng yuqorilari Toshkent va Zarafshon mintaqalariga xosdir. Birinchi mintaqaga 2007 yillar respublikaga kelganlarning 47,2 %, ikkinchiga – 30,3% i, ikkalasiga esa 3/4 dan ham ko'proq qismi to'g'ri keldi. Farg'ona mintaqasi bo'yicha esa ushbu ko'rsatkich 6,5% ni tashkil etdi. Eng muhimi Toshkent va Zarafshon va janubiy mintaqalariga kelganlarning 3-3,5 martaga ko'paygan holda ushbu ko'rsatkich Farg'ona, Mirzacho'l mintaqalari bo'yicha 2-2,5 martaga o'sdi, xolos. Mazkur mintaqalarga xos ulushlar esa 2000-2007 yillarda 3-4 martaga qisqardi.

Dam olish, davolanish yoki turist sifatida O'zbekistonga tash-rif buyurgan yoxud uning hududlardan jo'natilganlarga 2007 yilda respublika bo'yicha jami 399 ta firma va tashkilotlar xizmat ko'rsatdi. Ularning deyarli yarmi Toshkent mintaqasiga 145, Zarafshon mintaqasiga va faqat 12 tasi Farg'ona mintaqasiga to'g'ri keldi. SHunga qaramasdan Farg'ona mintaqasi bo'yicha xizmat ko'rsatilganlarning nisbiy soni Toshkent va Zarafshon mintaqalariga qaraganda kattaroq bo'ldi. Ya'ni Farg'ona mintaqasida har bir firma yoki tashkilot tomondan 2 salkam 3,5 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Toshkent

mintaqasi doirasida 1,4 ming kishiga, Zarafshon mintaqasida esa undan ham past – 1,2 ming kishiga teng bo'ldi.

Firma va tashkilotlarning bajaradigan asosiy vazifalari tashrif buyurganlarga xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olmoqda. Toshkent mintaqasida tashrif buyurganlar bilan jo'natilganlar o'rtasidagi nisbat 11 ga 1 ni, Farg'ona mintaqasida 5 ga 1 ni, Zarafshon mintaqasida esa, 93 ga 1 ni tashkil etdi (Respublika bo'yicha 10:1 ga teng). Demak, firmalar, tashkilotlarning aksariyat qismi tashrif buyurganlarga turli xil xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda (3 jadval).

Ma'lumki, dam olish, davolash va turistik xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi firmalar va tashkilotlar sanatoriy-kurort tashkilotlari, dam olish maskanlari va boshqa shakldagi tashkilotlardan tashkil topgan. O'zbekistonda ana shundaylarning barcha turdagilari mavjud.

O'zbekistonda 2007 yilda 161 ta sanatoriy-kurort tashkilotlari mavjud bo'lgan. SHulardan 28 si (17,4%) kichik korxonalar va mikrofirmalardan tashkil topgan. Sanatoriy-kurort tashkilotlarida jami 19351 ta joy mavjud, uning 2460 (12,7%)si kichik korxonalar va mikrofirmalardan iborat. Mazkur tashkilotlar tomonidan 2007 yilda 221,2 ming kishiga xizmat ko'rsatildi (xizmatlarning 7,6 % kichik korxonalar va mikrofirmalarga to'g'ri keladi).

Farg'ona mintaqasining barcha viloyatlarida O'zbekiston milliy turistik kompaniyasining mahalliy bo'limlari mavjud. Mintaqaning turizm salohiyatini belgilashda yaqin tarixiy davrlarda rekreatsion qulayliklarga ega bo'lgan turistik bazalarning o'rnini o'ziga xos. Bu o'tgan shu tarixiy davr (o'tgan asr) mobaynida mahalliy sayyohlarning eng muhim sayohatgohlari va sihatgohlari sifatida shuhrat qozongan. Bularga mintaqaning shimolidagi Ko'ksaroy, Andijon va Farg'ona turistik bazalarini misol keltirish mumkin. Biroq o'tgan asrning 90-yillaridan keyingi davrda mahalliy sayyohlar soni sezilarli darajada kamaydi, buning asosiy sababi o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bo'ldi.

Ammo, bugungi kunga kelib, mamlakatdagi barqaror turmush tarzi nafaqat mahalliy sayyohlar, balki, xorijlik sayyohlarini ham qabul qilib ularga sifatli xizmat ko'rsatish imkoniyatlariga ega. Mintaqadagi Namangan va Andijon

viloyatlaridagi sihatgohlarning salohiyatini jahonning Kavkaz va SHveytsariya mintaqalari bilan qiyoslash mumkin.

SHuningdek, mintaqada ko'plab muzeylar, arxitektura yodgorliklari, qadamjoylar va yodgorliklar mavjud bo'lib, ular Markaziy Osiyo va musulmon olamida o'ziga xos maqomga ega. Mustaqillik yillarida muborak qadamjoylar va tarixiy yodgorliklarga yanada e'tibor ortdi. Bu o'z navbatida O'zbekistonning Yaqin SHarq mamlakatlari va Markaziy Osiyoda ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatiga ega ekanligini yanada namoyish etmoqda.

O'zbekistondagi sanatoriy-kurort tashkilotlar kattalar uchun sanatoriyalar, pansionatlar, bolalar sanatoriyalari, ota-onali bolalar uchun sanatoriyalar, yil davomida faoliyat ko'rsatadigan sanatoriya-sog'lomlashtirish lagerlari va sanatoriy-profilaktoriyalardan iborat. SHulardan eng katta sonlilari bo'lib kattalar uchun sanatoriyalar (55 ta), bolalar sanatoriyalari (36 ta) va sanatoriy-profilaktoriy (53 ta)lar hisoblanadi. Ota-onali bolalar uchun sanatoriyalar, yil davomida faoliyat ko'rsatadigan sanatoriyalar va pansionatlar nisbatan kam tarqalgan.

Sanatoriya-kurort tashkilotlarida mavjud joylarning ham asosiy qismi kattalar uchun sanatoriyalar (43,0%), bolalar uchun sanatoriyalar (28,3%) va sanatoriy-profilaktoriylar (19,8%) hissasiga to'g'ri keladi. Deyarli barcha turdagi sanatoriya-kurort tashkilotlarining kichik korxonalar va mikrofirmalari faoliyat ko'rsatadi (bundan faqat ota-onali sanatoriyalar mustasno) (4 jadval).

Sanatoriy kurort tashkilotlari mamlakat mintaqalari doirasida notekis taqsimlangan. Bunda, albatta, rekreatsiya resurslarining mavjudligi, ularni xilmaxilligi muhim o'rin egallaydi. Sanatoriya-kurort tashkilotlarining hududiy tarkibini shakllanishida O'lka potologiyasi kabi omilning ham roli katta ya'ni viloyatlarda mavjud kasallik turlari, ularni tarqalish davri sanatoriya-kurort tashkiloti ixtisosini shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari yirik va katta shaharlarda malakali tibbiy kadrlarning mavjudligi ham muhim omil hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'til-ganidek, O'zbekistonda mavjud sanatoriya-kurort tashkilotlarining asosiy qismi Toshkent va Farg'ona mintaqalariga to'g'ri keladi (mutanosib holda 29,2 va 36,0%) undan keyingi o'rinlarda Janubiy, Zaraf-shon va Quyi Amudaryo

mintaqalari joylashgan. Toshkent va Farg'ona mintaqalari kattalar uchun sanatoriyalar (mutanosib holda 32,7 va 41,8%), bolalar uchun sanatoriyalar (16,7 va 38,9%), Sanatoriya-profilaktoriyalar (39,6 va 32,1%) soni va ulishlari bo'yicha O'zbekistonda yetakchi o'rinlarni egallaydi. Xizmat ko'rsatilgan kishilarning soni bo'yicha Toshkent va Farg'ona mintaqalari mamlakatda alohida o'ringa ega (40,0 va 39,2%). Janubiy va Quyi Amudaryo mintaqalari yil davomida faoliyat ko'rsatuvchi sanatoriya-sog'lomlashtirish lagerlari asosiy qismining joylashganligi bo'yicha ajralib turadi (50,0 va 33,3%). Lekin ularga xizmat ko'rsatilgan aholining atigi 5,3 va 3,7 %i to'g'ri keladi, xolos. Mirzacho'l mintaqasi esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha respublikada oxirgi o'rinlarni egallaydi.

O'zbekiston dam olish maskanlarining ham rivojlangan tarmog'iga ega. Respublikada mavjud 98 ta dam olish maskanlaridan 6 tasi dam olish pansionatlaridan, 16 tasi dam olish uylaridan, 20 tasi dam olish bazalaridan 2 tasi kempinglardan va 54 tasi boshqa turdagi dam olish maskanlaridan tashkil topgan. Ularning barchasida 2007 yilda 208,5 ming kishi dam oldi va davolandi.

Respublikada mavjud dam olish maskanlarining asosiy qismi (62,2%) Toshkent mintaqasida 7,1%dan 11,2% gacha bo'lgan qismi Quyi Amudaryo, Farg'ona, Zarafshon va Janubiy mintaqalarga to'g'ri keladi. Bu o'rinda faqat Mirzacho'l mintaqasida dam olish maskanlari tarmog'i unchalik taraqqiy etmaganligini ta'kidlab o'tish zarur.

Dam olish maskanlarida dam oluvchilar sonining asosiy qismi ham Toshkent (61,7%) hamda Zarafshon (15,9%), Farg'ona (14,7%), Quyi Amudaryo (6,0%) mintaqalarga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, sanatoriya-kurortlar dam olish maskanlari, turistik tashkilotlar insonlar uchun sog'liqni saqlash, uni tiklash, ijtimoiy qo'llash kabi vazifalardan tashqari mamlakat iqtisodiyotining muhim bir daromad manbaidir.

O'zbekistonda turizm tarmog'iga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 1-2% to'g'ri keladi, xolos. Ayni paytda ushbu ko'rsatkich Kiprda 25%ni, Andorra davlatida esa 90% ni tashkil etadi. Andorra davlatiga yiliga tashrif buyurgan turistlarning o'rtacha soni 12-13 mln. kishini tashkil etadi. Ularning har biri

kamida 800 dollarga teng xizmat xaqqini tashlab ketishini hisobga olsak, unda bir yilda turist-lardan tushgan umumiy mablag' 10-11 mlrd. dollarga teng bo'lmoqda.

SHunday qilib, sanatoriya-kurort, dam olish, va ayniqsa, turis-tik tashkilotlarning O'zbekistonda faoliyati hozirgi kun talabiga to'liq javob bermaydi. Eng avvalo, ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligi, aholini ish bilan ta'minlashi talab darajasida emas.

Bugungi kunda, jahon iqtisodiyatida hukmronlik qilayotgan, inqiroz yuzaga kelishiga sababchi mamlakatlardan tashqari juda ko'p mamlakatlarni qamrab olgan umumjahon iqtisodiy inqiroz to'g'risida o'z fikrini bildirmagan nashrlar qolmadi desak, hech qanday mubolag'a qilgan bo'lmaymiz. Jahon iqtisodiyotidagi salbiy hodisalarning O'zbekistonning turizm sohasiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini o'rganar ekanmiz, matbuotda bu mavzu ancha vaqtgacha chetlab o'tilgan. Birinchidan, iqtisodiy inqirozning mamlakatimizga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirini aytarli sezilarli deb bo'lmaydi, ikkinchidan esa, Markaziy Osiyoning eng yirik virtual turoperatori deb tan olingan OrexCA.com. kompaniyasi bilan hamkorlikda ana shu masalaga bag'ishlab o'tkazilgan so'rov natijalari va mahalliy turbiznes vakillarining javoblarini kutayotgan edik.

Berilgan savollarga mahalliy turoperator-responentlar tomonidan to'liq javoblar ololmagan bo'lsakda, so'rov natijasida olingan ko'rsatkichlar va O'zbekiston faol ishtirok etib kelayotgan umumjahon turizm bozorining rivojlanish tendentsiyalari bo'yicha o'tkazilgan tahlil ba'zi prognozlar qilishga yetarlicha asos bo'la oldi. Quyida aynan shu haqida fikr yuritiladi.

Hunarmandchilikning tarixan shakllanib kelgan va ma'lum davrlarda yo'q bo'lib ketgan sirlarini qayta kashf etish uzoq tadqiqotlarni talab qiladi. Bu o'z navbatida ajdodlardan avlodlarga hunarmandchilikning amaliy ko'rinishda o'rgatib borilishini ta'minlaydi va shu doiradagi tadqiqotlar ko'lamini boyitib boradi.

XULOSA

Birinchidan, xorijliklar e'tiborini tortuvchi milliy hunarmandchilik mahsulotlari bozori va uning geografiyasiga ahamiyat qaratish. Masalan, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi davlatlar turizmining rivojlanishida ularning milliy hunarmandchilik mahsulotlari muhim omil bo'lgan;

Ikkinchidan, milliy hunarmandchilik mahsulotlari reklamasiga ahamiyat berish. Masalan, keyingi yillarda "Fond-Forum" jamg'armasi tashabbusi bilan tashkil etilayotgan "Asrlar sadosi" festevali an'anaviylashib bormoqda va respublikaning turli mintaqalarida o'tkazilmoqda. Bu o'z navbatida shu hududlar milliy hunarmandchiligini xorijlik sayyohlarga namoyish qilish imkonini bermoqda;

Uchinchidan, milliy hunarmandchilik namunalarining ko'chma ko'rgazmalarini xorijiy davlatlarda tashkil etish, xalqaro ko'rgazmalar va festivallarda milliy hunarmandlar ishtirokini ta'minlash;

To'rtinchidan, respublikaning milliy hunarmandchilik rivojlangan chekka hududlarida mehmonlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatish infrastrukturasi takomillashtirish, mehmonxonalar, transport, ovqatlanish, tibbiy xizmat ko'rsatishda faollik va sifatni ta'minlashga erishish;

Beshinchidan, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar malakasini oshirish, hunarmandchilik sirlari va milliy mintalitetga xos xususiyatlarni turli tillarda ravon bayon qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash lozim;

Oltinchidan, mahalliy nodavlat xizmat ko'rsatish muassasalari xizmat sifatini oshirish, xizmatga haq olishda qonunchilik doirasidagi madaniy formalarni joriy qilish va unda gidlar nazoratini ta'minlash va hokozolar. Masalan, mahalliy aholining xorij valyutasini noqonuniy ayriboshlashga moyilligi sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda to'lovlarning "Mobil" shakllari paydo bo'lmoqda, mehmonxonalarda bu kabi xizmatlarni amalga oshiruvchi bank shahobchalarining bo'lishi "chek" asosida xarid qilingan mahsulotlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu o'z navbatida milliy valyuta – "so'm" qadrining mustahkamlanishi uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda mustaqillik yillarida turizm sanoati va turizm bilan bog'liq qurilish sohasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Respublika viloyatlarida bir va ikki yulduzli mehmonxonalar soni yil sayin ortib bormoqda. Turizmni rivojlantirish doirasida kator qarorlar qabul qilinmoqda va dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Biroq, masalaning iqtisodiyot va mablag'lar bilan bog'liq jihatlari doimo dolzarblik kasb etadi. Farg'ona mintaqasida turstlarni o'ziga jalb qiladigan jihatlarning birinchisi uning tabiati bo'lsa, ikkinchisi uning uzoq tarixiy davrlardan boshlab rivojlanib, ajdodlardan avlodlarga meros tariqasida o'tib kelayotgan hunarmandchiligidir. Hunarmandchilik kam hollarda sarmoya kiritiladigan va undan manfaat topadigan faqat hunarmandlar bo'lib, bu ham hunarmandning og'ir va mashaqqatli mehnati uchun ko'p daromad keltirmaydi. SHu sababli hunarmandlar ishini rivojlantirish uchun prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ularga o'z oilaviy biznesini rivojlantirish uchun mini kireditlar berish, ular tavakkalchiliklarini qaltisliklardan himoya qilish maqsadida sug'urta tizimini rivojlantirish lozim. Bu kabi tadbirlar ularning qo'rqmasdan o'z biznesini rivojlantirish uchun mehnat qilishining kafolati bo'ladi.

O'zbekiston xalqaro turizm va milliy hunarmandchilikning yirik markazi ekanligini butun dunyo biladi va tan oladi. Eng muhimi ushbu sohalarning salohiyati juda katta va undan to'liq foydalanish uchun keng miqyosli ishlarni amalga oshirish lozim. Mamlakatda 2008 yilda 350 ming kishi atrofidagi turistlarga xizmat ko'rsatildi. Vaholanki, mehmonxonalar va boshqa turdagi turistlarni joylashtirish ob'ektlarining quvvati yiliga hech qanday muammosiz 700-800 ming kishini kutib olish va ularga namunali xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Butun jahon turistik tashkiloti (WTO)ning ma'lumotlariga binoan markaziy va sharqiy Yevropa va ushbu rayonlarga tenglashtirilgan O'zbekistonga kelgan bir turistning o'rtacha xarajatlari 360 dollorni tashkil etishini hisobga olsak, unda mamlakatimizning faqat ana shu soha bo'yicha ololmagan daromadi 121 mln. dollorga kam bo'lmoqda (EKO obozrene, 2006 №7, s 8).

Turizm yuqordagi muommolarsiz rivojlanganda uning YaIMdagi ulushi hozirgi 0,3 - 0,4 % o'rniga 1,8 % ga teng bo'lishi mumkin edi. Undan tashqari rivojlangan mamlakatlarda har 1000 xorijiy turistga 20-50 kishi atrofida xizmat ko'rsatuvchi personal to'g'ri kelishini hisobga olganda mamlakatimizda 7 mingdan ortiq qo'shimcha o'rinlari barpo qilsa bo'ladi.

Xorijiy turistlar va ichki turistlar harakatlarining tahlili ular sonining oshayotganligini, lekin shu vaqtning o'zida tushayotgan daromad hajmining qisqarayotganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, turmush sektoridan olinayotgan daromad 2000-2005 yillarda 63 mln. AQSH dollaridan 35 mln. dollorga, 2005-2008 yillarda esa 35 mln. dollordan 33 mln. dollorgacha pasaydi. Bundan turizmga xos umumiy tendentsiyalardan tashqari O'zbekiston turizmida hisobga olinmayotgan xususiy noformal sektorning roli yildan-yilga oshib borayotganligi muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda har 100 aholiga 1 dan ham kam xorijiy turist to'g'ri keladi. Agar ushbu ko'rsatkich Xitoyda bo'lgani kabi 3 taga yetkazilsa, unda xorijdan keluvchilar soni 850 ming kishidan ham oshib ketar edi. Xorijlik turistlar sonini ana shu ko'rsatkichga va keyinchalik 1 mln. kishiga yetkazish turizmni rivojlantirishning strategik vazifasi bo'lishi kerak.

Ma'lumki, O'zbekiston hunarmandchilik tarixini va uni o'rganish keng mavzudir. Muhim jihati shuki mazkur dissertatsiya ishi eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha taraqqiy etgan hunarmandchilikning ba'zi bir sohalari to'g'risida ma'lumot beradi.

Bir qarashda hunarmandchilik juda oddiy tushunchadek tuyuladi. Biroq, bu tushuncha vaqt o'tgan sayin o'zgacha ma'no kasb eta boradi. O'tgan davrimizga oid ko'pgina noyob hunarmandchilik mahsulotlari respublikamiz muzeylarida emas, Amerika Qo'shma SHtatlari, Vengriya, Angliya, Italiya, Hindiston, Polsha, CHexoslovakiya, Yaponiya va boshqa davlatlarning nufuzli muzeylarida saqlanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida milliy hunarmandchilik va turizmning rolini oshirish, undan keladigan daromadni va shu

sohada band aholini ko'paytirish, "Turizm asri" deb atalmish XXI asrda davlatimiz hukumatining oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda turizmni hududlar bo'yicha rivojlantirishda milliy hunarmndchilikni turizm infrastrukturasi yaxshi yo'lga qo'yish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

turistlarni kelishi, joylashtirilishi va ketishini qat'iy nazoratga olish, bunga soliq tashkilotlarini jalb qilish;

mehmonxonalar sonini ko'paytirish, ularni hech bo'lmaganda uch yoki to'rt yulduzga ega bo'lgan standartga moslashtirish;

turistlarni transport vositalari bilan ta'minlashni keskin yaxshilash;

turistik ob'ektlarga tashrif qilishni kelishilgan jadval asosida amalga oshirish;

turistlarga vizalar berish protsedurasini jiddiy ravishda yengillashtirish lozim.

CHunki, O'zbekistonga kelishni xohlovchi turistlarning har 5 tadan bittasi ayni mana shu muammo tufayli o'z niyatini amalga oshira olmayapti. Buning uchun eng gavjum yo'nalishlarga ega mamlakatlarda, aeroportlarda O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarini barpo etish maqsadga muvofiq;

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishga ko'proq ahamiyat berish lozim. Ichki turizmning yetarli tarzda rivajlanmaganligi aholi moliyaviy mablag'larining cheklanganligi, ijtimoiy turizmini talab darajasida rivojlanmaganligi, ichki turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturini takomillashtirish nazarda tutiladi. O'zbekturizm Milliy kompaniyasining ma'lumotlariga binoan 2008 yilda respublika aholisining atigi 3 % i uning hududida sayohat qildi, xolos;

aholining madaniyati va ma'lumoti darajasini oshirish, respublikaning turli mintaqalarida jahon tsivilizatsiyasi, madaniyati va san'ati bilan tanishtirish;

sifatli asosiy va qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish, ularning sifatini jahon standartlariga yetkazish. Turizm sohasini moddiy-texnika bazasini valyuta tushumi yordamida Davlat yo'li bilan ta'minlash hamda turistik xizmatlarga xorijlik turistlar tomonidan talabni shakllantirishda keng qamrovda xalqaro reklama tizimidan foydalanish;

xalqaro turizmni rivojlanishi ko'p jihatdan transport vositalari, birinchi galda havo transportida mavjud biletlar narxiga bog'liq 2007-2008 yillarda transport biletleri shu jumladan aviabiletlar narxlari keskin ko'tarildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi biletlar narxini pasayishiga sabab bo'lmoqda. SHunga qaramasdan aviabilet narxi Yevropadan Toshkentgacha 400-600 yevroga teng, Amerika yoki Avstraliyadan Toshkentgacha bo'lgan aviabilet narxlari 800-1500 yevroni tashkil etadi. Bunday xarajatni turist ham ko'tara olmaydi.

turizmni, ayniqsa xalqaro turizmni rivojlantirishda xususiy (noformal) sektorning rolini ko'tarib borish maqsadga muvofiq. Bunda, albatta, mukammal qonun-qoida, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish zarur.

turizmni iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanishi uchun uni BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Turizmni barqaror rivojlantirish" asoslangan holda taraqqiy ettirishda xorij taj-ribasidan foydalanish;

O'zbekiston milliy hunarmandchiligi yuqori darajada rivojlangan, sayqallangan jahon markazlaridan biridir. Hunarmandchilik sanoatlashishi, urbanizatsiyalanganlik kabi jarayonlar bilan uzviy bog'langandir. Hunarmandchilikning rivojlanishida iqtisodiy kategoriya "talab va taklif"ning ahamiyati beqiyosdir. Aynan ana shu kategoriyaga bog'liq holda hunarmandchilikning baъzi-bir sohalari yo'q bo'lib, boshqa yangilari vujudga keldi. Uning ayrim ishlab chiqarish jarayonlari yana ham chuqurlashdi, sayqallashdi. Hunarmandchilik bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rtasida izchil aloqadorlik mavjudki, uni yana ham chuqurlashtirish va rivojlantirish darkor. Unda soliq tizimi, bojxona to'lovlari kabilardan foydalanish tiklab bo'lmaydigan o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Samarqand yoki Buxoroga, Xiva yoki tashrif buyurgan xorijlik har qanday turist eng avvalo xalq hunarmandchiligining yorqin mahsuli natijasi bo'lgan tarixiy yodgorliklar, binolar, dahmalar, masjidlar boshqa turli xil ob'ektlarni ko'rish uchun kelishligi aytib o'tilgan. CHust yoki Rishtonda pichoqchilik, do'ppichilik, kulolchilik namunalaridan bahra oladi. Hunarmandchilik o'zining xarajatini o'zi qoplaydigan soha bo'lgani uchun, uni bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hamda

moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida samarali rivojlanishi quyidagi muammolarni hal qilish bilan bog'liq:

sohachalar mahsulotlariga bo'lgan talab dinamikasining o'zgarishiga qarab, sohani diversifikatsiyalashni doimiy tarzda amalga oshirib turish lozim;

hunarmandlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hamda ichki va tashqi bozorga sotish hajmiga qarab imtiyozli xom-ashyo bilan ta'minlash tizmini barpo etish lozim;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda hunarmandchilik subʼektlarini ko'paytirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. CHunki, shunday qilinganda mahalliy aholini ish va daromad bilan ta'minlash imkoniyati vujudga keladi.

milliy hunarmandchilikni "oila", dinastiyalar doirasida rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bizning taklifimiz sifatida "Milliy hunarmand oila maktabi" tizimini rivojlantirish deb bilamiz. CHunki faqat shu yo'l bilangina hunarmandchilikda necha yuz yillar davomida vujudga kelgan usul va yondashuvlarni saqlab qolish mumkin

milliy hunarmandchilik bilan turizm o'rtasidagi aloqani yana ham chuqurlashtirish ko'p jihatdan hunarmandchilik sohasi mahsulotlarini keng targ'ib qilishga bog'liq. Bu, ayniqsa, noyob mahsulotlar kulolchilik, milliy pichoqsozlik, milliy do'ppichilik, zardo'zlikka birinchi galda taalluqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I s l o m K a r i m o v. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent: O'zbekiston, 2009. –56 bet.
2. I s l o m K a r i m o v. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevralъ.
3. I s l o m K a r i m o v. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2008 yil 9 fevralъ.
4. I s l o m K a r i m o v. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2007 yil 8 dekabrъ.
5. I s l o m K a r i m o v. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islohot etishdir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2005 yil 19 yanvarъ.

6. I s l o m K a r i m o v. 2008 yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi // Xalq so'zi, 2008 yil 12 fevralь.
7. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo'lgan davlat dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 15.04.1999 yildagi UP-№2286 farmoni.
8. I s l o m K a r i m o v. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. "2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida". 2009 yil 13 fevralь.
9. I s l o m K a r i m o v. "O'zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to'g'risida". 1999 yil 30 iyundagi PF-№2332 farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Buyuk Ipak yo'li"ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'grisidagi" Farmoni.
11. I s l o m K a r i m o v. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2006–2010 yillarda O'zbekiston Respublikasida servis va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2006 yil 17 aprelь.
12. I s l o m K a r i m o v. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi qonuni". Xalq so'zi. 1999 yil 14 sentyabrь.
13. A b d u l a h a t o v N., E s h o n b o b o y e v O'. Marg'ilon haqida so'z. Farg'ona: "Farg'ona" nashriyoti, 2006.
14. D o' s t o v U. N. Turizm xizmatining huquqiy tartibga solinishi. Toshkent, 2004.
15. Q l i c h y e v U. A. O'zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (1991–2006 yy.): Tarix fan. nom. ... dis. avtoref. Toshkent, 2010.

16. Moziydan taralgan ziyo – “san’at va hunarmanchilik”. Toshkent: SHarq, 1998 129–138-betlar.
17. M u r o d j o n H o s h i m o v. Turizm asoslari. Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2009.
18. N a b i y e v E., Q a y u m o v A. A. O’zbekiston iqtisodiy salohiyati. Toshkent: Universitet, 2002.
19. Najmiddin Fazliddin o’g’li, Muhammad Xakim, Jo’raxon Muhammad Hofiz o’g’li. “CHust tarixi”. CHust, 1995.
20. N a z a r o v A. A., S i r o j i d d i n o v a U. Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning ayrim masalalari”. (O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 23-jild). Toshkent, 2003.
21. Namangan viloyati statistika boshqarmasi va CHust tumani statistika boshqarmasining materiallari. 2003 yil yanvarъ.
22. N i g’ m a t o v A., S H o m u r o t o v a N. Ekoturizm asoslari. Toshkent: Turon-Iqbol, 2007.
23. N a r c h a y e v A. N., T o s h m u r o d o v T. T. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda turizm // Jamiyat va boshqaruv. 2000 yil 4-son.
24. N u r m a t o v M. SH. Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishning ijtimoiy-geografik asoslari (CHust shahri misolida) // O’zbekiston geografiya jamiyati axboroti.
25. N u r m a t o v M. SH. “Farg’ona vodiysi bo’ylab sayohatlar uyushtirish” Respublika Yosh sayohatchilar va o’lkashunoslar markazi. Toshkent, 2007.
- 26.23. R a s h i d B o y t u l l a y e v. Sohibqiron davrida hunarmandchilik // Toshkent oqshomi, 2004 yil 7 apreлъ.
27. Respublika davlat arxivi 19-f, 1-ro’yxat. 1458-ish.
28. Respublika davlat arxivi 19-f, 1-ro’yxat. 1893-ish.
29. S y e r g y e y e v B. O’zbekistonda miskarlik. Toshkent, 1960.

30. S o l i y e v A. S., U s m a n o v M. R. Turizm geografiyasi (Samarqand viloyati misolida). Samarqand, 2005.
31. T a k s a n o v A. Azbuka ekoturizma. Assotsiatsiya puteshestvennikov “Rabat Malik”. Tashkent, 2005.
32. T a k s a n o v A. O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2001 yil № 9-soni. 56-60-b.
33. O’zbekiston Respublikasi Xalq ustalari, hunarmandlari “Hunarmand” uyushmasi materiallari. Toshkent, 2008.
34. O’zbekiston san’ati (1991–2001 yillar). Toshkent: SHarq, 2001.
35. H a y i t b o y e v R., A m r i d d i n o v a R. Turizmning maxsus turlari. Uslubiy qo’llanma. Samarqand, 2008.
36. H a y i t b o y e v R., S a t t o r o v A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand, 2009.
37. CHust shahar va tuman arxivi materiallari.
38. Y a k u b o v O’., V a h o b o v H. Rekreatsion geografiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
39. A l y e k s a n d r o v A. Yu. Mejdunarodnyy turizm. Uch.posobie dlya vuzov. M.: Aspekt Press, 2004.
40. B i r j a k o v M. B. Vvedenie v turizm. Spb.: Izdatel’skiy torgovyy dom “Gerda”, 2004.
41. B i r j a k o v B., N i k i f r o v V. I. Industriya turizma. 2003.
42. Vvedenie v gostepriimstvo. Uch. posobie. Uoker D.R. 2002.

1. www.peugeotufa.ru – TSena uslug.
2. www.basheexpo.ru – Выставки, konferentsii.
3. www.interunion.ru – Turistskie assotsiatsii.